ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2026/№4

TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-МЕТОДИК ЖУРНАЛ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODICAL JOURNAL

TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

№04/2026
APREL

Muassis:
Buxoro davlat universiteti
Fan va ta’lim MChJ

Bosh muharrir: Ma’murov Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori

Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori

Mas’ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko‘chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan **PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI** bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga uxsat etildi:
29.04.2026y.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.
b/t.12,5.
Buyurtma raqami №0424
«FAN VA TA’LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar https://interscience.uz/ saytida joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O‘zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro‘yxatidan o‘tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko‘chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Abdullayeva D. A. Buxoro yodgorliklarining ta’mirlanish tarixidan (arxiv hujjatlari kontekstida)	8
Azimova K. K. Xiva jadidchiligi va uning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni xususida	12
Boltayev B. B. Muzeyshunos olim Robert Valiyevich Almeyev tomonidan yahudiylar tarixining o‘rganilishi	16
Klichev O. A. Buxoro amirlik hududiga tashrifi buyurgan elchilik missiyasi vakillarining hisobot va xotiralari tahlili	21
Masaliyeva O. M. Sohibqiron Temur va Subhonquli xon: davlat boshqaruvidagi strategik o‘xshashliklar va tarixiy vorislik	26
Nurmuradov D. A. Yangi jahon tartibotida ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsion o'zlik dialektikasi	30
Nuritdinova N. S. Turkiston o‘lkasida 1908-1909 yillarda o‘tkazilgan senatorlik taftishining sabab va oqibatlari	39
Очилдиев Ф. Б. Бухоро амирлиги қишлоқ хўжалигида пахтачиликнинг ривожланиши	43
Убайдуллаева Б. Уйғурларнинг никоҳ тўйи маросимида диний анъаналарнинг ўрни	49
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Achilova R. A. Badiiy nutqda realiya va o’xshatish asosli allyuziyalarning o`ziga xosligi	55
Qurbonova Sh. O‘. CEFR asosidagi ingliz tili ta’limi hamda o‘zbek tili ta’limida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasining qiyosiy tavsifi	60
Semenova O. R., Usanova O. G. Паремии с зоонимами как средство обучения русскому языку как иностранному в вузе	65
Xalilova R. R. Прагмалингвистические особенности речи руководителя	73
Kurbanova G. Y. O‘zbek va rus tilidagi fiziologik holat fe’llari tasnifi	78
Nusratova H. Ch., Vaxobova D. A. Ijtimoiy hayotda frazeologizmlardan foydalanish holati	81
Tukhtayeva F. I. Perl Bak hayoti va ijodida madaniy tarjima va narrativ gumanizm	84
Yuldasheva N. E. Ingliz va o‘zbek tillarida qo‘shma otlar semantikasida kontekst va pragmatik inferensiyaning roli	92
Jamolova M. B. Developing Critical Thinking Competence through CLIL Technology	96

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Safarova R.G. O‘quvchilarda insonga qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasini shakllantirish - ijtimoiy emotsional ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida	101
Boboqulova A. A. O‘zbek xalq dostonlarida tarbiyaviy qarashlarning shakllanishi va mazmuni	105
Eshtemirov A. N. Fizika ta’limining tajriba-faoliyatli modeli: konsepsiya va maqsadlar tizimi	109
Jabborov J. A. O‘smirlarda o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirishda ota-onalik amaliyoti va tarbiya uslublarining o‘rni	115
Jo‘rayev Y. Pedagogning metodik kompetensiyasi	120
Karimova G. Umumiy ta’lim maktablarini innovatsion boshqarishni tashxislashning ilmiy-metodik asoslari	124
Kilichev N. A. Talabalarga informatika kursini o‘qitishda AKTdan foydalangan holda mustaqil bilishni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari	129
Kokoreva E. G., Saulenko A. A., Kostenok P. I. Методические особенности развития физических качеств лыжников-гонщиков на этапе начальной спортивной специализации	133
Lafasov B. Pedagogning motivatsiyalash kompetensiyasi va uni ta’lim sifatini oshirishdagi roli	143
Nadirxanova N. A. Talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	146
Qandimova N. Kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy ta’limni tashkil etishning nazariy asoslari	151
Ro‘ziyeva D. S. Intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirishda Industrial Cases, IMEN metodlarini qo‘llashning samaradorligi	155
Ruzmetova N. V., Abdullayeva R. A. The main problems of choosing idea in the research	160
Ruzmetova N. V., Axmedova Sh. O. Scientific and theoretical foundations for the modernization of educational and methodological support based on international experience	165
Ruzmetova N. V., Ibragimova D. I. Challenges in the effective implementation of art therapy methods in inclusive classrooms	168
Ruzmetova N. V., Narzikulova M. A. Ways to develop economic education and independent thinking in primary education in the era of digitalization	171
Ruzmetova N. V., Ramziddinova X. X. The role and importance of foreign language communication skills in primary school students in the context of modern education	175
Ruzmetova N. V., Shoakmalova E. A. Developing primary school students’ independent thinking: international experience	178
Xamedova N. A., Adinamatova D. I. Boshlang‘ich sinf matematika darsliklarida tenglamalarning (2021–2023) qiyosiy tahlili	183
Chamanova G. A. Maktab yoshidagi bolalarni estetik tarbiyalashda musiqaning o‘rni	188
Chorieva M. J. Inclusive education in higher education: challenges, strategies, and policy implications	193
Nurmatova N. U. Milliy tarbiya metodlari asosida talaba qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik asoslari	199
Nusratova H. Ch., Anvarova D. T. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantrish	203
Nusratova H. Ch., Oribxonova D. O. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sintaktik tushunchalarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar	207

Ochilova L. T. Funksiyaning limitini hisoblashda hosil bo'ladigan aniqmas ifodalar va ularni elementar usullarda ochish	212
Shamsiyeva Sh. R. Kasbiy kompetentlik tushunchasi, tarkibi va biologiya o'qituvchisi faoliyatidagi o'rni	220
Естурлиева А.И. Практика как ключ к профессиональной компетентности будущих специалистов	228
Choriyeva Z. O. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektyal rivojlantirishda evristik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik-psixologik omillari	236
Kurbanova Sh. Y. Aqlli sensorlar yordamida yosh taekvondochilarning zarba texnikasidagi kamchiliklarni erta aniqlash va korreksiyalash metodikasi	241
Davronov T. T. Zamonaviy pedogogik yondashuvlar asosida o'quvchilarning jismoniy samaradorligini oshirish texnalogiyalari	244
Axadova G. S. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini mediavositalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	248
Elmurodova Z. A. Boshlang'ich ta'lim tizimida savodxonlik darslarining o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati	254
Namozov B. X. Pedagogikada innovatsion yondashuvlar tahlili	257
Boboqulova V.N. Elektron ta'limiy vositalar orqali boshlang'ich sinflarda"Fonetika" bo'limini o'qitish	261
Sharopova Sh. S.XX asr boshlarida o'zbek tilida yaratilgan darsliklarning mazmuni va shakllari	264
Ergashova G. B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars mashg'ulotlari jarayonida ma'naviy – axloqiy sifatlarini tarbiyalashda integratsiyalashgan darslardan foydalanish	269
Qosimova M. M., Ergashova G.R. Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik ma'teriallarni o'rgatish	274
Baybayeva M. X., Shamsiyeva M. R. Abu Nasr Farobiy asarlarida boshqaruv madaniyati konsepsiyasi va uning zamonaviy talqinlari	281
Курбанов.Ш.Н. Кураш машғулотларини ташкил қилишнинг педагогик шароитларини такомиллаштириш.	284
Nuriddinov B Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy faolligini optimallashtirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish	291
Muhammadiyev Sh. B. Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar	295
Nusratova Hamida Ch., Abdug'apporova D. A. Bolalar nutqini rivojlantirishda morfologik bilimlarning ahamiyati	301
Nusratova H. Ch., Rahimjonova M. B. Boshlang'ich sinf ona tili darsligidagi matn va rasmlar orqali o'quvchi nutqini rivojlantirish	306
Normuratova V. I. AI cognitive dependency in fltm	312
Мирзаев М. Н. Бўлажак ўқитувчида иқтисодий компетенцияни ривожлантиришнинг зарурати	315
Идиева Л. Б. Рефлексив-аксиологик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг деонтологик компетенциясини ривожлантириш	321
Kamalov A. J. Ijtimoiy institutlar hamkorligi asosida o'qituvchi obro'yini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	327
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Latipov R. A. Ma'naviyatga tahdidlar: globallashuv davrida dolzarb masala	330
Пронин Р. О. Общепсихологическое направление исследований восприятия зрительных иллюзий	335
Rabbimova S. J., Davronov I.E. Alohida ta'limga ehtiyojli bolalar bilan ishlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar	338

TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

JAMOATCHILIK KENGASHI A’ZOLARI

Djurayev Risboy Haydarovich*, pedagogika fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.*

Shamsutdinov Rustambek Temirovich, *Andijon davlat universiteti professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori*

Majidov Inom Urushevich, *texnika fanlari doktori, professor. O‘zbekiston milliy universiteti*

Olimov Qahramon Tanzilovich, *pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali*

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, *texnika fanlari doktori, professor*

Musurmonova Oyniso*, pedagogika fanlari doktori, professor*

Safarova Rohat G‘aybulloyevna, *pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti*

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, *pedagogika fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.*

TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI

XORIJ OLIMLARI

Artamonova Yekaterina Iosifovna, *pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti*

Yemelyanova Irina Yevgeneyevna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika univversiteti. Rossiya*

Kuzmenko Galina Anatolevna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti*

Safaraliyev Bozor Safaraliyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi*

Kulishov Vladimir Vasilevich, *pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina*

Lazarenko Irina Rudolfovna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya*

Filippova Oksana Gennadevna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika univversiteti. Rossiya*

Xristo Kyuchukov, *pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti. Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya*

Kumskov Mixail Ivanovich, *fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti*

Padalka Oleg Semenovich, *pedagogika fanlari doktori, professor, M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina*

Hazretali Tursun, *tarix fanlari doktori, professor, Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori*

Mamedova Irada, *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo‘lim boshlig‘i*

Timur Xo‘jao‘g‘li, *tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)*

Nurettin Hatunoğlu *Doç. Dr., Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)*

Mullodjanov Sayfullo Kuchakovich, *tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti*

Gushko Sergey Vladimirovich, *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina*

O‘ZBEKISTON OLIMLARI

TARIX FANLARI

Azamat Ziyo, *tarix fanlari doktori, akademik, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori*

Rajabov Qahramon Kenjayevich, *tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi*

FILOLOGIYA FANLARI

Madjidova Ra’no Urishevna, *filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Sharipova Laylo Frunzeyevna, *filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti*

Nigmatova Lolaxon Xamidovna, *filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti*

Yusupova Hilola O‘ktamovna, *filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Akramova Surayo Renatovna, *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doytori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Saidova Muxayyo Umediloevna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doytori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti

Nizamova Umida Sandjarovna, ***filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doytori (PhD),*** *Andijon davlat texnika instituti dotsenti*

PEDAGOGIKA FANLARI

Tolipov O‘tkir Qarshiyevich, *pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.*

Olimov Shirinboy Sharofovich, *pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti*

Dilova Nargiza Gaybullaevna, *pedagogika fanlari doktori DSc, professor. Buxoro davlat universiteti*

Tilavova Matlab Muxammadovna, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Sohibov Akram Rustamovich, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti*

Umarov Baxshullo Jo‘rayevich, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Hasanova Gulnoz Qosimovna, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Inoyatov Abdullo Shodiyevich, *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti*

Davronov Nurzod Ismoilovich, *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov Baxriddin Mingbayevich, *psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti*

Bafayev Muxiddin Muxammadovich, *psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

IQTISODIYOT FANLARI

Kurolov Kobuljon Kulmanovich, *iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori*

Mamanazarov Abduxakim Bozorovich, *pedagogika fanlari doktori DSc. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali*

FALSAFA FANLARI

Namozov Bobir Bahriyevich, *falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti*

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

***Джураев Рисбой Хайдарович**, доктор педагогических наук, академик АНРУз*

***Шамсутдинов Рустамбек Темирович**, профессор Андижанского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук*

***Мажидов Ином Урушевич**, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека*

***Олимов Кахрамон Танзилович**, доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена*

***Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович,** доктор технический наук, профессор*

***Мусурмонова Ойнисо,** доктор педагогический наук, профессор*

***Сафарова Рохат Гайбуллоевна,** доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи*

***Ибрагимов Холбой Ибрагимович,** доктор педагогических наук, академик АНРУз*

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ

ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

***Артамонова Екатерина Иосифовна,** доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук*

***Емельянова Ирина Евгеневна,** доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия*

***Кузьменко Галина Анатольевна**, доктор педагогических наук, профессор. Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья*

***Сафаралиев Бозор Сафаралиевич**, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии*

***Кулишов Владимир Васильевич,** доктор педагогических наук, профессор. Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина*

***Лазаренко Ирина Рудольфовна**, доктор педагогических наук, профессор. Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия*

***Филиппова Оксана Геннадьевна**, доктор педагогических наук, профессор. Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия*

***Христо Кючуков,** доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социолингвистики, Германия*

***Кумсков Михаил Иванович**, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова*

***Падалка Олег Семенович, д**октор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина*

***Хазретали Турсун,** доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави*

***Мамедова Ирада**, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана*

***Тимур Хужаугли,** лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)*

***Nurettin Hatunoğlu,** Assoc. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)*

***Муллоджанов Сайфулло Кучакович,** доктор исторических наук, профессор. Национальный университет Таджикистана*

***Гушко Сергей Владимирович**, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина*

УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

История

***Азамат Зиё,** доктор исторических наук, академик, директор Института истории Академии наук Узбекистана*

***Раджабов Кахрамон Кенжаевич,** доктор исторических наук, профессор, главный научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана*

Филология

***Маджидова Рано Уришевна,** доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков*

***Шарипова Лайло Фрунзеевна,** доктор филологических наук. Бухарский государственный университет*

***Нигматова Лолахан Хамидовна,** доктор филологических наук. Бухарский государственный университет*

***Юсупова Хилола Уктамовна,** кандидат филологических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Акрамова Сураё Ренатовна,** доктор философских наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

Саидова Мухайё Умедилоевна, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент. Бухарский государственный университет

Низамова Умида Санджаровна, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент Андижанского государственного технического института

Педагогика

***Толипов Уткир Каршиевич,** доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.*

***Олимов Ширинбой Шарофович,** доктор педагогических наук, профессор. Бухарский государственный университет*

***Тилавова Матлаб Мухаммадовна,** кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Дилова Наргиза Гайбуллаевна,** доктор педагогических наук (DSc), профессор. Бухарский государственный университет*

***Сохибов Акрам Рустамович,** кандидат педагогических наук, доцент. Каршинский государственный университет*

***Умаров Бахшулло Джураевич,** кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Хасанова Гулноз Касимовна,** кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Иноятов Абдулло Шодиевич,** доктор философских наук (PhD) по педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет*

***Давронов Нурзод Исмоилович,** PhD по педагогическим наукам, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

Психология

***Умаров Бахриддин Мингбаевич,** доктор психологических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет*

***Бафаев Мухиддин Мухамадович,** PhD по психологическим наукам. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами*

Экономика

***Куролов Кобулжон Кулманович,** доктор экономических наук, профессор. Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова*

***Маманазаров Абдухаким Бозорович,** доктор педагогических наук (DSc), доцент. Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова*

Философия

***Намозов Бобир Багриевич,** доктор философских наук. Бухарский государственный университет*

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL

Risboy Haydarovich Djuraev, *doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

Rustambek Temirovich Shamsutdinov, *professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences*

Inom Urushevich Majidov, *doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.*

Kahramon Tanzilovich Olimov, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen*

Zokirkhoja Abdusattorovich Tadjikhodjaev, *doctor of Technical Sciences, Professor*

Oyniso Musurmonova, *doctor of pedagogical sciences, professor*

Rohat Gaybulloevna Safarova, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.*

Kholboy Ibragimovich Ibragimov, *doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

MEMBERS OF EDITPRIAL COUNCIL

Ekaterina Iosifovna Artamonova, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences*

Irina Evgeneevna Emelyanova, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia*

Galina Anatolevna Kuzmenko, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health*

Bozor Safaralievich Safaraliev, *doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy*

Vladimir Vasilevich Kulishov, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine*

Irina Rudolfovna Lazarenko, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia*

Oksana Gennadevna Filippova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia

Christo Kyuchukov, doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany

Mikhail Ivanovich Kumskov, doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University

Oleg Semenovich Padalka, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine

Tursun Hazretili, doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi

Khuzhaugli Timur, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)

Hatunoğlu Nurettin, Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)

Mullojanov Sayfullo Kuchakovich, doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan

Gushko Sergey Vladimirovich, doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukrain

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN

History

Azamat Ziyo, *doctor of Historical Sciences, Academician, director of the of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan*

Rajabov Kakhramon Kenjayevich, *doctor of Historical Sciences, Professor, main researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan*

Philology

Majidova Rano Urishevna, *doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages*

Sharipova Laylo Frunzeyevna, *professor, Doctor of Philology. Bukhara State University*

Nigmatova Lolaxon Xamidovna, *doctor of Philology. Bukhara State University*

Yusupova Khilola Oktamovna, *candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute*

Akramova Surayo Renatovna, *doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*

Saidova Mukhayyo Umediloevna, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

Nizamova Umida Sandjarovna, Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, associate professor at Andijan institute of engineering and technology.

Pedagogy

Tolipov Utkir Karshiyevich, *doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.*

Olimov Shirinboy Sharofovich, *doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University*

Tilavova Matlab Muhammadovna, *candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*

Dilova Nargiza Gaybullayevna, *doctor of pedagogical sciences (DSc), Professor. Bukhara State University*

Sohibov Akram Rustamovich, *candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University*

Umarov Bakhshullo Djurayevich, *Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*

Khasanova Gulnoz Kasimovna, *candidate of pedagogical sciences, associate professor.Bukhara State Pedagogical Institute*

Inoyatov Abdullo Shodievich, *doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University*

Davronov Nurzod Ismoilovich*, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*

Psychology

Umarov Bakhriddin Mingbayevich, *doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University*

Bafaev Muhiddin Mukhamadovich, *PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

Economy

Kurolov Kobuljon Kulmanovich, *doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov*

Mamanazarov Abdukhakim Bozorovich, *doctor of pedagogical sciences (DSc), associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov*

Philosophy

Namozov Bobir Baxriyevich*, doctor of Philosophy. Bukhara State University*

07.00.00 – TARIX FANLARI

BUXORO YODGORLIKLARINING TA’MIRLANISH TARIXIDAN (ARXIV HUJJATLARI KONTEKSTIDA)

Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna,
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi doktoranti, t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada savdo majmualari – tim hamda toqlar kabi me’moriy yodgorliklarni saqlash, ta’mirlash va qayta tiklash ishlari bilan bog’liq tarixiy jarayonlar yoritiladi. Shuningdek, sovet hokimiyati yillarida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlarning yurtimiz tarixiy va madaniy yodgorliklariga bo‘lgan munosabatda aks etganligi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: me’moriy, Buxkomstaris, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, Timi Abdullaxon, deformatsiya, ta’mirlash, ravoqlar, ijaradorlik, muhofaza hudud, smeta, restavratsiya, gumbaz.

ИЗ ИСТОРИИ РЕМОНТА ПАМЯТНИКОВ БУХАРЫ (В КОНТЕКСТЕ АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ)

Аннотация: В данной статье рассматриваются исторические процессы, связанные с сохранением, ремонтом и реставрацией архитектурных памятников, таких как торговые комплексы «Тим» и «Токлар». Также анализируется, как политические изменения, произошедшие в годы советской власти, отразились на отношении к историко-культурным памятникам нашей страны.

Ключевые слова: архитектурный, Бухкомстарис, Токи Заргарон, Токи Саррофон, Токи Тельпакфурушон, Тими Абдуллахан, деформация, ремонт, аркады, аренда, охраняемая территория, смета, реставрация, купол.

FROM THE HISTORY OF THE REPAIR OF MONUMENTS IN BUKHARA (IN THE CONTEXT OF ARCHIVAL DOCUMENTS)

Annotation. This article examines the historical processes associated with the preservation, repair, and restoration of architectural monuments, such as the Tim and Toklar shopping malls. It also analyzes how the political changes that occurred during the Soviet era affected attitudes toward our country’s historical and cultural monuments.

Keywords: architectural, Bukhkomstaris, Toki Zargaron, Toki Sarrofon, Toki Telpakfurushon, Timi Abdullakhan, deformation, repair, arcades, lease, protected area, estimate, restoration, dome.

Kirish. Mamlakatimizda Sovet hokimiyati yillarida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar tarixiy va madaniy yodgorliklarga bo‘lgan munosabatda ham aks etmay qolmadi. Bu davrda ta’mirlanishi uchun ko‘proq mablag‘ talab etilgan yoki shaharsozlik va yo‘l qurilishlarida xalaqit bergan obidalarni buzib yuborish hollari avj oldi. Ta’kidlash joizki, bu davrda saqlanib qolgan obidalar o‘zining birlamchi vazifasini bajarmasa-da, tarixiy ahamiyatidan kelib chiqib davlat ro‘yxatiga kiritilganligi, o‘lkashunos olimlarning ilmiy tadqiqot obyektiga aylanishi, qolaversa, turistik marshrut yo‘nalishida joylashganligi sabab ta’mirlash jarayoniga jalb etildi. Yodgorliklardan turli xo‘jalik va maishiy maqsadlarda foydalanish zarurati, sanoat va ishlab chiqarish korxonalari hamda tashkilotlarga ijaraga berilishi ham ularning ta’mirlanishini ta’minlagan.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Buxoro me’moriy obidalari ta’miroti, ularning

muhofazasi tarixidagi muammolar yetarlicha tadqiq etilib, ilmiy muomalaga kiritilmagan. Shu sababli, mavzuni tadqiq etishda arxiv manbalari fondida saqlanayotgan hujjatlar asosiy manba vazifasini bajardi. Mazkur maqola umumqabul qilingan tarixiy metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy va siyosiy tahlil, xronologik izchillik tamoyillari asosida yoritilgan.

Muhokama va natijalar. Me’moriy yodgorliklar ta’mirlanishiga mas’ul muassasa va tashkilotlar faoliyatiga doir hujjatlarni tadqiq etish bajarilgan bu kabi ta’mir ishlari ko‘lami va sifatining yodgorliklar saqlovi uchun yetarli bo‘lmaganini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Buxkomstarisning usta-xodimlariga mas’ul-sardor Usta Qurbon Saidov 1946-yil martda Arxitektura ishlari boshqarmasi boshlig‘i V.A.Jahongirovga murojaat qiladi[1]. Unda so‘nggi uch-to‘rt yil davomida rahbarlarning beparvoligi va loqaydligi natijasida Toqi Zargaron buzilib, vayron bo‘layotgani ta’kidlanganligi e’tiborga molik. Ta’mirlash zarurati qayd etilgan ro‘yxatlar esa moliyaviy ta’minot mavjud bo‘lmaganligi hisobiga bajarilmay qolib ketgan.

Ma’lum bo‘ldiki, Buxkomstarisning ushbu murojaati natija berib, savdo majmualari – Toqlarda ta’mirlash va qayta tiklash ishlari olib boriladi. Jumladan, 1946-yilda budjet hisobidan 200.000 rubl mablag‘ ajratilib, Zargaron toqining uchta gumbazi qayta tiklanadi. 1947-yilda arxitektor V.M.Dmitriyev tomonidan Toqi Sarrofonda asosiy ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. Bunda yodgorlikning janubi-g‘arbiy devoridagi qattiq buzilishlar ta’mirlanib, bino deformatsiyalashuvining oldi olinadi. 1948-ta’mir yilida esa Toqi Zargaronda qayta tiklash ishlari olib borilgan[2]. Arxitektura ishlari boshqarmasining 1950-yilgi ta’mirlash dasturida Toqi Zargaronda konstruktiv-mustahkamlash loyihasi tuzilib, vayron holatdagi janubiy va shimoliy qism ravoqlari ta’mirlanadi. Buning uchun maxsus mablag‘lardan 20.000 miqdorida mablag‘ ajratilgani ma’lum. Arxitektura ishlari boshqarmasi tomonidan 1949-yilda Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon va Timi Abdullaxonda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida mazkur obidalar alohida savdo majmuasi–kompleks sifatida ilmiy tavsiflanib, asoslandi. Buning natijasida, ushbu yodgorliklar chizmalari shahar bosh rejasiga kiritilishiga erishilgan. Bu toqlarning muhofazasi va xavfsizligini ma’lum ma’noda ta’minlaydigan omil bo‘la oldi.

Ta’mirlashga mas’ul tashkilotlar faoliyatiga doir yana bir e’tiborli jihat, Telpakfurushon toqining muhofaza masalasi bilan bog‘liq bo‘lib, 1951-yil avgust oyiga qadar toq yaqinidan o‘tadigan mashinalar qatnovining to‘xtatilishidir. Sababi, shu yilning 21-fevral sanasida Davlat qurilish muhofaza inspeksiyasi boshlig‘i I.Y.Patik tomonidan Toqi Telpakfurushonning texnik holati tekshirilib, transport harakatlanishi natijasida devor suvoqlarida o‘pirilish sodir bo‘layotganligi rasmiylashtirilgan. Shundan so‘ng, 1951-yil 27-avgustda Buxoro shahar ijroiya qo‘mitasi rahbari Bakayev toqning ta’miri uchun zarur mablag‘ ajratilishini so‘rab, V.A.Jahongirovga murojaat qiladi. Ammo mavjud ma’lumotlardan 1952-yilda Toqi Telpakfurushonda ta’mirlash ishlari emas, balki ushbu tadbir uchun zarur bo‘lgan ilmiy o‘rganish hamda o‘lchov ishlari olib borilganligi ma’lum bo‘ldi[3]. 1953-yilda yodgorlikni to‘liq ilmiy tadqiq etish, toqdagi o‘tish yo‘laklarining ravoqlarini mustahkamlash, tom qismini ta’mirlash kabi ishlar bajarilgan. Buxoro MITICHU tomonidan amalga oshirilgan bu amaliyot uchun maxsus mablag‘lar tushumidan 60.000 rubl summa talab etilgan.

Mazkur davrga tegishli toqlardan foydalanish va ijaradorlik bilan bog‘liq ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ularning “Buxoro shahar savdo” idorasi ixtiyoriga berilganligi aniqlandi. Ijara to‘lovi miqdori esa O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1947-yil 30-iyundagi 1012-son qaroriga asoslanib savdo rastalari uchun 1kv.m maydondan yiliga 140 rubl, omborxona maqsadidagi foydalanuv uchun esa 75 rublni tashkil etgan. Masala yuzasidan idoralararo yozishmalarni o‘rganish davomida quyidagi mulohazali holatga duch keldik.

O‘zbekiston SSR Savdo vaziri S.Ziyamov 1952-yil 13-iyunda Vazirlar Kengashi raisining o‘rinbosari V.A.Bilbas nomiga yo‘llagan xatida go‘yoki Toqlar tarixiy yodgorlik hisoblanmasada, ulardan tarixiy yodgorlik ijarasi uchun zarur summani to‘lash talab etilgani, qolaversa, savdo rastalari tarixiy ahamiyatga ega emasligidan kelib chiqib, ularni Savdo vazirligi hisobiga o‘tkazish kerakligini talab etadi. Vaholanki, birinchidan, ushbu obidalarning tarixiy qimmati, ahamiyati

ilmiy asoslanib 1927-yildayoq davlat muhofazasidagi yodgorliklar ro‘yxatiga kiritilgan edi. Ikkinchidan esa, mavjud smeta hujjatlari belgilangan ijara to‘lovining yetkazilayotgan zarardan bir necha barobar kamligini dalillaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, S.Ziyamovning savdo majmualari-toqlarga nisbatan “da’vo”lari mutlaqo o‘rinsiz bo‘lgan, deb hisoblaymiz.

Ijaradorlar tomonidan yetkazilgan zararga qaramay, toqlar binosi muntazam ijara uchun foydalanuvga berilgan. Faqatgina 1952-yil 10-sentabrda rejalashtirilgan ilmiy izlanishlar sabab, Arxitektura ishlari boshqarmasining Buxorodagi hududiy vakili S.Sharipov Toqi Telpakfurushondagi 1953-yilgi ijara shartnomasi imzolanmasligini ta’minlashga erishgan.

Arxitektura ishlari boshqarmasining Yodgorliklar muhofazasi bo‘limi taklifi bilan Buxorodagi sayyohlar uchun asosiy ko‘rsatmali yo‘nalish (marshrut) bo‘yicha joylashgan yodgorliklar 1954-yilda qayta ko‘rib chiqilib ularning soni o‘n beshtaga yetkaziladi. Mazkur ro‘yxatda Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon hamda Toqi Sarrofonning mavjudligi ulardagi ta’mirlash va qayta tiklash ishlarining sifatiga, salmog‘iga ta’sir ko‘rsatishini ta’minlagan. Joriy yilning o‘zidayoq, Telpakfurushon toqida maxsus mablag‘lar tushumidan 80.000 rubl ajratilib, ta’mirlash va mustahkamlash ishlari bajarilgan. Timi Abdullaxondagi ishlar ko‘lami uchun esa 1954-ta’mir yilining birinchi qismida 120.000 rubl, ikkinchisida 24.000 rubl miqdorida mablag‘ ajratiladi.

O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1953-yil 6-avgustdagi qaroriga muvofiq Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Sarrofon hamda Timi Abdullaxon atrofidagi maydon muhofaza hududi etib belgilanadi[4]. Shu munosabat bilan, Timi Abdullaxon va Toqi Zargaron oralig‘idagi maydonda saqlanib kelinayotgan Ta’mirlov idorasining Buxoro uchastkasiga tegishli qurilish materiallari(toshlar, shag‘al, g‘isht, yog‘och)ning saqloviga ruxsat berilmaydi.

Buxoro MITICHU ning ta’mirlash faoliyatiga doir ma’lumotlar 1956-yilda Toqi Telpakfurushonda amalga oshirilgan ta’mir, binoning ichki g‘ishtli ravoqlarini temir-beton qobiqlar bilan o‘rash ishlaridan iborat bo‘lganligini ko‘rsatadi. Xarajatlar smetasida buning uchun 186.400 rubl mablag‘ jalb etilgani qayd etilgan.

O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1957-yil 22-fevraldagi “Chet el sayyohlarini qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asoslanib, 1957-yilda Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasiga shaharni obodonlashtirish va sayyohlar uchun asosiy ko‘rsatmali yo‘nalish (marshrut) bo‘yicha joylashgan yodgorliklarga boruvchi yo‘llarni ta’mirlash uchun 500.000 rubl mablag‘ ajratish uchun ko‘rsatma berilgan. Buning natijasida, 1957-1958-ta’mir yillarida Toqi Telpakfurushonning konstruktiv-mustahkamlash ishlari yakunlanib, Toqi Zargaron hamda Sarrofon toqlarida ham qo‘shimcha ravishda restavratsiya ishlari amalga oshirildi. Tahlillar 1962-yil 1-aprel holatida Buxoro me’moriy obidalaridan 42 tasi davlat muhofazasidagi yodgorliklar sifatida qayd etilganini ko‘rsatmoqda. Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Sarrofon hamda Timi Abdullaxonni mazkur ro‘yxatga kiritilishining muhofaza va ta’mirlanishdagi ta’siri sezilarli bo‘ldi. Qolaversa, yodgorliklar vositasida shaharning turistik salohiyatini oshirish siyosati 60-yillarda ham davom ettirilganligi hisobiga yodgorliklar tashqi fasadini restavratsiya qilish, atrofini obodonlashtirish va ularga boradigan yo‘lni asfaltlashtirish kabi tadbirlar doimiy amalga oshirilgan.

Maxsus ilmiy ta’mirlash va loyihalash byurosi topshirig‘i asosida muhandis Usmonxo‘jayev tomonidan 1961-1962-yillarda Zargaron toqining muhofaza hududini o‘rab olish loyihasi va smetasining tayyorlanishi ham mazkur chora-tadbirlarning amaliy natijasi edi.

O‘zbekiston SSR Madaniyat Vazirligi huzuridagi Moddiy madaniy yodgorliklarni saqlash va muzeylar boshqarmasi vakili F.A.Muhammadjonovning 1965-yilgi Buxoroga tashrifi hamda Buxoro MITICHU bosh muhandisi I.Y.Patik va viloyat Madaniyat boshqarmasi arxitektori I.Muhsinovlarning shaxsan Toshkentga tashriflari natijasi sifatida Timi Abdullaxonda 1966-ta’mir yilida bir qadar qayta tiklash ishlari bajarilishiga erishiladi.

Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasining 1967-yil 14-martda viloyat madaniyat bo‘limi boshlig‘i R.Fozilovga savdo majmualari – tim va toqlarning saqlanishini yaxshilash maqsadida, ularni ijaradorlardan bo‘shatish kerakligini so‘rab qilgan murojaati yodgorliklar muhofazasi borasida

ahamiyatli taklif bo‘ldi. Biroq, Buxoro viloyat madaniyat bo‘limi tomonidan joriy yil uchun belgilangan ijara to‘lovlari Toqi Telpakfurushondan 5.804 rubl, Toqi Zargaronda 9.330 rubl, Sarrofon toqidan 1.008 rubl, Abdullaxon timidan esa 5.722 rubldan iborat daromadlar ko‘rsatilib, agar taklif inobatga olinadigan bo‘lsa, yodgorliklar ta’miri uchun yo‘naltiriladigan maxsus mablag‘lar tushumidagi ta’minotda yetishmovchilik yuzaga kelishi kabi ehtimol vajidan ushbu tashabbus inobatga olinmaydi[5]. Buni Timi Abdullaxonning 1969-yilga kelib ham “Shahar-savdo” idorasi omborxonasi vazifasini bajarganligi dalillaydi.

O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashi tomonidan 1971-yil 15-oktabrda “Buxoro va Xiva shaharlarida tarixiy-me’moriy yodgorliklarni saqlash, obodonchilik hamda qurilish ishlarini yaxshilash va jadallashtirish” to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi. Mazkur qarorning ijrosi sifatida Buxoro me’moriy obidalarida qayta tiklash va ta’mirlash ishlari bir qadar jonlangani ko‘zga tashlanadi. 1971- yilning o‘zidayoq Zargaron, Sarrofon va Telpakfurushon toqlarida konstruktiv-mustahkamlash ishlari amalga oshirilgan. 1972-ta’mir yilida Abdullaxon Timida binoning ichki qismida ta’mirlash ishlari hamda muhofaza hududida obodonlashtirish olib boriladi.

O‘zbekiston SSR Vazirlar kengashining 1978-yil 23-avgustdagi “Abu Ali Ibn Sinoning 1000 yillik yubileyini nishonlashga tayyorgarlik to‘g‘risida”gi qarori ijrosi sifatida bir nechta Buxoro me’moriy obidalari qatorida Toqi Telpakfurushonda ham ta’mirlash ishlari olib borilgan. Bunda asosan toq devorlari va gumbaz qoplamalarini qayta tiklash va mustahkamlash, muhofaza hududini obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Xulosa. XX asr 80-yillarining boshlarida mavjud siyosiy vaziyat va iqtisodiy ahvol me’moriy obidalarni ta’mirlash hamda qayta tiklash ishlariga ham ta’sir etmay qolmadi. Tahlillar, mazkur yillarda ta’mirlash sur’atining sezilarli pasayganligini ko‘rsatmoqda. Buxoro MITICHU tomonidan amalga oshirilgan ta’mirlash ishlari uchun O‘zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatining Buxoro bo‘limi asosiy buyurtmachi sifatida qoladi. Bajariladigan ishlar yodgorliklarning cheklangan miqdorida amalga oshirilib, ko‘p hollarda muayyan maqsadlarga ega edi. Tarixiy obidalarga bo‘lgan nooqilona munosabat va ularning muhofazasidagi loqaydliklar kattagina qism yodgorliklarning xaroba holga tushib qolishini tezlashtirgan omil bo‘ldi. Jumladan, 1987-yilda Toqi Sarrofon tomidagi nishab tizimining buzilishi, tarnovlari tushib ketganligi natijasida qor va yomg‘ir suvlari bino poydevoriga katta zarar yetkazgani aniqlangan. Qolaversa, Timi Abdullaxon va Toqi Zargaron orasidagi maydonda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qazilgan shurf-xandaqlar tuproq va chiqindi bilan to‘ldirilganligi sababli yomg‘ir suvlarini o‘tkazib, obidalarga ziyon yetkazilganligi ma’lum bo‘lgan.

Bunday misollarni mazkur yillarda chop etilgan davriy matbuot nashrlaridagi maqola va xabarlarda ko‘plab uchratish mumkin. Sababi, “Qayta qurish” siyosati taqdim etgan “oshkoralik” natijasida, madaniy merosga nisbatan yuritilgan siyosat qusurlari, yillar davomida yodgorliklar muhofazasi, ta’mirlash va qayta tiklash borasidagi yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish imkoni yaratildi. E’tiborimizni tortgan jihat, tadqiqot doirasidagi hujjatlarda bu muammolarning hal etilgani to‘g‘risidagi ma’lumotning mavjud emasligi bo‘ldi. Bu sovet hukumatining “Qayta qurish” siyosati davrida ham me’moriy yodgorliklar muhofazasi va ta’miri bilan bog‘liq muammolarga “panja ortidan” qarashni ma’qul topganligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro’yxati

O‘zbekiston Milliy arxivi (keying o’rinlarda – O’zbekiston MA), R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 360-yig‘majild, 133-134-varaqlar.

O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 37-yig‘majild, 191-varaq.

O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 395-yig‘majild, 278-varaq.

O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro‘yxat, 449-yig‘majild, 134-varaq.

O‘zbekiston MA, R-2296-fond, 6-ro‘yxat, 17-yig‘majild, 11-varaq.

XIVA JADIDCHILIGI VA UNING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O‘RNI XUSUSIDA

Azimova Kamola Karimovna,
BuxDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan Xiva xonligida shakllangan jadidchilik harakati, uning mohiyati va ahamiyati yoritiladi. Jadidchilikning milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va mustaqillik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Ayniqsa, Polvonniyoz Hoji Yusupov hamda Bobo Oxun Salimov kabi yetakchi namoyandalarning siyosiy va ijtimoiy faoliyati misolida harakatning rivojlanish bosqichlari ochib beriladi. Maqolada jadidlarning xalqni uyg‘otish, davlat boshqaruvida islohotlar o‘tkazish va mustaqillikka erishish yo‘lidagi sa’y-harakatlari manbalar asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sovet davrida mazkur harakatga berilgan baholarning biryoqlamaligi tanqidiy tahlil qilinadi va yoshlarni pedagogik tarbiyalash yo‘lidagi asosiy masalalardan ekanligi asoslab beriladi.

Tayanch iboralar. Yosh xivaliklar, jadid, tarbiya, ta’lim, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat, mafkura, vatanga muhabbat, globallashuv, boshlang’ich ta’lim, axloq, marifat.

Аннотация. В данной статье рассматривается движение джадидов, возникшее в Центральной Азии, в частности в Хивском ханстве, в начале XX века, его сущность и значение. Анализируется неразрывная связь между джадидизмом и идеями национального пробуждения, просвещения и независимости. В частности, на примере политической и социальной деятельности таких видных деятелей, как Полвонниоз Ходжи Юсупов и Бобо Охун Салимов, раскрываются этапы развития движения. В статье рассматриваются усилия джадидов по пробуждению народа, проведению реформ в государственном управлении и достижению независимости на основе источников. Также критически анализируется односторонность оценок этого движения в советскую эпоху и обосновывается его важность как одного из главных вопросов педагогического воспитания молодежи.

Ключевые слова. Молодые жители Хивы, Джадид, воспитание, образование, образование молодежи, духовность, идеология, любовь к родине, глобализация, начальное образование, мораль, просвещение.

Abstract. This article discusses the Jadid movement, which emerged in Central Asia, particularly in the Khiva Khanate, at the beginning of the 20th century, its essence and significance. The inextricable link between Jadidism and the ideas of national awakening, enlightenment, and independence is analyzed. In particular, the stages of development of the movement are revealed using the example of the political and social activities of such leading figures as Polvonniyoz Hoji Yusupov and Bobo Okhun Salimov. The article examines the efforts of the Jadids to awaken the people, carry out reforms in state administration, and achieve independence based on sources. It also critically analyzes the one-sidedness of the assessments given to this movement during the Soviet era and justifies its importance as one of the main issues in the pedagogical education of young people.

Key words. Young Khiva people, Jadid, upbringing, education, youth education, spirituality, ideology, love of the homeland, globalization, primary education, morality, enlightenment.

Kirish. XX asrning to‘qsoninchi yillariga kelib tarix sahnasidan «Buyuk g‘oya»ga asoslangan sobiq sosialistik Ittifoq tanazzulga yuz tutdi. Uning tarkibiga kirgan barcha ittifoqdosh davlatlar o‘z mustaqilligiga erishdi. Mustaqil O‘zbekistonning ham rivojlanish yo‘liga qadam qo‘yishi ota-bobolarimizning ozodlik va erk uchun uzoq kurashlari tarixini kayta idrok etishga, milliy ozodlik harakati mafkurasining shakllanish jarayoniga davlat mustaqilligiga erishishni ta’minlagan

omillar sifatida katta ijtimoiy qiziqish uyg‘otmoqda. Mamlakat mustabid tuzum va unga xizmat qilgan mafkuradan xalos bo‘ldi.Tarixiy xaqiqatni qayta tiklash imkoniyati paydo bo‘lgan bugungi tub o‘zgarishlar sharoitida ma’rifatparvarlik, jadidchilik, istiqlolchilik va milliy ozodlik harakati jarayonining ahamiyati va o‘rni haqidagi eski qarashlarni butunlay qayta ko‘rib chiqish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Jadidchilikning mohiyatini millat va vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bulgan qizg‘in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi. Xususan, jadidlarimiz millatni yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar. Jadidchilik so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, jadidchilik so‘zining asosida jadid co‘zi yotib, uning ma’nosi «yangi», «yangi tafakkur», «yangi inson» deganidir. Istilohning kirib kelishi Ismoilbek Gaspirali (Gasprinskiy) ochgan yangi maktab nomi bilan bogliq. U yozadi: «...1884 sanasi Bog‘chasaroyda bir maktab(n)i «usuli jadid»(g)a qo‘ymish edim».[4:4.; 6:4.]

1. Nasirova, U. (2025). Language learning with AI: a new era of motivation and personalization. PhD Thesis. Tashkent: Uzbekistan State University of World Languages.

2. Chiu, T. K. F., et al. (2023). Systematic literature review on opportunities, challenges, and future research recommendations of AI in education. Computers and Education: Artificial Intelligence.

3. Fan, Y., et al. (2024). Beware of metacognitive laziness: Effects of generative AI on learning. British Journal of Educational Technology.

4. Seligman, M. (2013). Learned Optimism (The concept of «learned helplessness»). Moscow: Alpina Publisher. (Original work published in English).

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИДА ИҚТИСОДИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЗАРУРАТИ

Мирзаев Мансур Наимович,
Бухоро давлат педагогика институти

Аннотация. Ушбу мақолада мамлакатнинг замонавий ижтимоий-иқтисодий тараққиёт тенденцияларига мос равишда педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг иқтисодий тайёргарлигини такомиллаштириш масалалари таҳлил қилинган. Мақолада иқтисодий тайёргарлик шахсда туғма ёки олдиндан белгиланган хусусият эмаслиги, балки реал ҳаётий фаолият жараёнида шаклланиб, ривожланиб бориши асослаб берилган. Шунингдек, бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни ривожлантиришнинг мақсади шахсни қатъий функционал чекловлардан халос этиш, унинг шахсий салоҳиятини юзага чиқариш ҳамда эгалланган иқтисодий билим, кўникма ва малакалардан онгли, масъулиятли ва ижодий фойдаланиш орқали касбий фаолиятга самарали мослашувини таъминлашдан иборат эканлиги ёритилган.

Калит сўзлар: иқтисодий компетенция, иқтисодий тайёргарлик, бўлажак ўқитувчи, касбий таълим, иқтисодий билим, шахс, фаолият, таълим жараёни.

XXI асрда Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг кўламли ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар, рақамли иқтисодиётнинг жадал ривожланиши, бозор муносабатларининг чуқурлашуви ҳамда инсон капиталига бўлган эътиборнинг ортиши таълим тизими олдига мутлақо янги вазифаларни қўймоқда. Айниқса, бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни шакллантириш ва ривожлантириш масаласи бугунги кунда стратегик аҳамиятга эга бўлган педагогик муаммолардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Зеро, замонавий жамият нафақат ўз мутахассислик соҳасини яхши биладиган, балки иқтисодий жараёнларни англайдиган, иқтисодий муносабатларда мустақил қарор қабул қила оладиган, бозор механизмлари шароитида фаол ҳаракатланувчи ва рақобатбардош шахсни талаб қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сонли “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонида инсон капитали сифати ва таълим тизими самарадорлигини ошириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланган. Шунингдек, “Таълим тўғрисида”ги Қонун, “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”, “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси каби меъёрий ҳужжатларда таълим жараёнида замонавий иқтисодий билим ва компетенцияларни ривожлантириш муҳим вазифа сифатида қайд этилган. Бу эса педагогика олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий тайёргарлигини такомиллаштириш заруратини янада кучайтиради.

Бугунги кунда иқтисодиёт фақат иқтисодчи мутахассислар фаолият юритадиган соҳагина эмас, балки педагогика, психология, социология, менежмент ва бошқа ижтимоий-гуманитар фанлар билан чамбарчас боғланган мураккаб ижтимоий тизимга айланмоқда. Иқтисодий муносабатларнинг глобаллашуви, меҳнат бозорида рақобатнинг кучайиши ва инновацион фаолиятнинг кенгайиши ҳар бир инсондан иқтисодий маданият, иқтисодий тафаккур ва иқтисодий масъулиятни талаб этмоқда. Шу нуқтаи назардан қараганда, бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни шакллантириш уларнинг нафақат шахсий ҳаёти, балки касбий-педагогик фаолияти самарадорлигини ҳам белгилаб берувчи муҳим омил ҳисобланади.

Иқтисодий компетенцияни педагогик ва психологик муаммо сифатида талқин этувчи илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, аксарият тадқиқотчилар мазкур тушунчани шахснинг иқтисодий билимлари, амалий кўникмалари, иқтисодий тафаккури ва турли иқтисодий вазиятларда мақбул қарор қабул қилиш қобилиятининг интегратив

бирлиги сифатида баҳолайдилар. Бунда иқтисодий компетенция фақат назарий билимлар йиғиндиси сифатида эмас, балки инсоннинг иқтисодий муносабатларда онгли иштирок этиши, иқтисодий жараёнларни таҳлил қилиши, ресурслардан самарали фойдаланиши ва иқтисодий фаолиятни мақсадли ташкил эта олиши билан белгиланади.

Замонавий педагогик ёндашувларда иқтисодий компетенция шахснинг касбий компетенцияси таркибида муҳим ўрин эгаллаши таъкидланмоқда. Айниқса, педагогика йўналиши талабалари учун иқтисодий компетенциянинг аҳамияти янада юқори бўлиб, бу уларнинг келажакда таълим жараёнини самарали ташкил этиши, таълим муассасасидаги иқтисодий муносабатларни англаши, таълим ресурсларидан оқилона фойдаланиши ҳамда ўқувчиларда иқтисодий маданиятни шакллантириш фаолияти билан бевосита боғлиқдир. Шу нуқтаи назардан қараганда, бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий компетенцияси уларнинг касбий фаолиятга тайёрлиги ва рақобатбардошлигини белгиловчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Педагогика мутахассислиги талабаларининг иқтисодий компетенциясини шакллантиришда иқтисодий онг ва иқтисодий тафаккур алоҳида аҳамият касб этади. Чунки иқтисодий онг инсоннинг жамият иқтисодий ҳаётига бўлган муносабатини белгиласа, иқтисодий тафаккур иқтисодий воқеликни англаш, таҳлил қилиш ва унга нисбатан мақбул ечимларни ишлаб чиқиш имконини беради. Иқтисодий тафаккур орқали шахс иқтисодий жараёнларнинг мазмунини англайди, ишлаб чиқариш самарадорлигини баҳолайди, бозор муносабатлари ва иқтисодий тараққиёт қонуниятларини тушуниб етади. Бу эса ўз навбатида, бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий маданиятини шакллантиришга хизмат қилади.

Шарқ мутафаккирлари ҳам инсоннинг иқтисодий онги ва иқтисодий тафаккурини ривожлантириш масаласига алоҳида эътибор қаратганлар. Масалан, Абу Наср Форобий инсоннинг жамиятда муносиб ўрин эгаллашида меҳнат, касб ва иқтисодий билим муҳим ўрин тутишини таъкидлаган бўлса, Абу Али ибн Сино инсон камолотида илм, тадбиркорлик ва тежамкорлик муҳим аҳамиятга эга эканлигини қайд этган. Алишер Навоий эса инсоннинг маънавий ва моддий фаровонлиги ҳалол меҳнат ва иқтисодий фаоллик билан чамбарчас боғлиқлигини ўз асарларида бир неча бор таъкидлайди. Унинг қарашларида иқтисодий билим нафақат моддий эҳтиёжларни қондириш, балки жамият барқарорлиги ва инсон камолотини таъминлаш воситаси сифатида талқин қилинади.

Шарқ мутафаккирлари ҳам инсоннинг иқтисодий билим ва меҳнат фаолиятига алоҳида эътибор қаратганлар. Абу Наср Форобий инсоннинг жамиятда муносиб ўрин эгаллаши учун меҳнат, касб ва иқтисодий муносабатларни англаши зарурлигини таъкидлаган. Унинг фикрича, инсон фақат билим орқалигина моддий ва маънавий камолотга эришади. Абу Райҳон Беруний эса меҳнат ва иқтисодий фаолиятни инсон тараққиётининг муҳим омили сифатида баҳолаб, ҳар қандай касб жамият тараққиёти учун хизмат қилиши лозимлигини қайд этган. Ибн Сино инсоннинг камолоти унинг ақлий салоҳияти, меҳнатсеварлиги ва иқтисодий муносабатлардаги онгли иштироки билан белгиланишини таъкидлаган. Алишер Навоий асарларида ҳалол меҳнат, тадбиркорлик, тежамкорлик ва адолатли иқтисодий муносабатлар жамият барқарорлигининг асоси сифатида талқин этилади. У “Маҳбуб ул-қулуб” асарида инсон меҳнат орқали нафақат моддий бойлик, балки маънавий юксалишга ҳам эришишини таъкидлайди.

Жадид маърифатпарварлари – Абдулла Авлоний, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов каби мутафаккирлар ҳам таълим тизимида иқтисодий билимларнинг аҳамиятига алоҳида урғу берганлар. Абдулла Авлоний “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарида инсоннинг ҳаётда муваффақият қозониши илм, меҳнат ва иқтисодий тафаккур билан бевосита боғлиқ эканлигини таъкидлайди. Унинг фикрича, иқтисодий билимга эга бўлган шахс жамиятда ўз ўрнини топа олади ва мустақил ҳаёт кечиришга қодир бўлади.

Иқтисодий компетенция ва иқтисодий тайёргарлик муаммоси хорижий ва маҳаллий

олимлар томонидан турли йўналишларда тадқиқ этилган. Хусусан, Г. Беккер, Т. Шульц, Ж.М. Кейнс, П. Самуэльсон, М. Фридман каби иқтисодчи олимлар инсон капитали, иқтисодий билим ва иқтисодий фаолликнинг жамият тараққиётидаги ўрнини асослаб берганлар. Ж.М. Кейнс инсоннинг иқтисодий қарор қабул қилиш жараёнида тўлиқ ахборотга эга эмаслигини таъкидлаб, иқтисодий жараёнларда таълим ва давлат қўллаб-қувватлашининг аҳамиятини кўрсатган.

Педагогик нуқтаи назардан иқтисодий компетенция муаммоси И.Ф. Исаев, Н.В. Кузьмина, А.К. Маркова, В.А. Сластенин, И.А. Зимняя, Ю.Г. Татур, М.И. Дьяченко, Л.А. Кандибович каби олимларнинг ишларида касбий компетенция ва шахснинг тайёргарлик тизими билан боғлиқ ҳолда тадқиқ қилинган.

Республикамизда иқтисодий таълим, инсон капитали ва иқтисодий тафаккурни ривожлантириш масалалари С.Ғ. Ғойибназаров, Қ.Х. Абдураҳмонов, А.В. Ваҳобов, Д.Н. Тожибоева, Ш.Ш. Шодмонов, М.Ш. Шарифхўжаев каби иқтисодчи олимларнинг тадқиқотларида ёритилган. Уларнинг ишларида инсон капитали, иқтисодий билим ва иқтисодий маданиятни ривожлантириш мамлакат тараққиётининг муҳим омили сифатида баҳоланади.

Шу билан бирга, бўлажак мутахассисларнинг иқтисодий компетенциясини шакллантириш, иқтисодий тафаккур ва иқтисодий маданиятни ривожлантириш масалалари педагогик таълим нуқтаи назаридан ҳали етарли даражада комплекс тадқиқ этилмаган бўлиб, мазкур муаммо замонавий таълим тизимида долзарб илмий-педагогик вазифалардан бири сифатида сақланиб қолмоқда.

Уларнинг ишларида замонавий таълим жараёнида иқтисодий билимларнинг интеграцияси, талабаларнинг мустақил иқтисодий фикрлаши ва иқтисодий муносабатлардаги фаол иштирокини таъминлаш муҳим педагогик вазифа сифатида талқин қилинади.

Педагогик таълим амалиёти таҳлили шуни кўрсатадики, бугунги кунда бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий компетенциясини ривожлантириш жараёнида бир қатор зиддиятлар мавжуд. Жумладан, жамиятнинг иқтисодий жиҳатдан тайёр, рақобатбардош ва ташаббускор педагог кадрларга бўлган эҳтиёжи билан олий таълим муассасаларида иқтисодий тайёргарликни ривожлантиришнинг илмий-педагогик асослари етарли даражада такомиллашмаганлиги ўртасида муайян тафовут кузатилади. Шунингдек, университет таълим муҳитининг иқтисодий компетенцияни ривожлантириш бўйича юқори педагогик салоҳиятга эга эканлигига қарамай, амалда бу жараённи ташкил этишнинг методик механизмлари тўлиқ шаклланмаган.

Рус олимлари И.Ф. Исаев, Н.В. Кузьмина, А.К. Маркова, В.А. Сластенинлар компетенцияни шахснинг назарий билимлари ва амалий тажрибасини бирлаштирувчи интегратив сифат сифатида талқин қиладилар. Уларга кўра, касбий компетенция инсоннинг маълум фаолиятни самарали амалга оширишга тайёрлигини ифодалайди. Психолог олимлар М.И. Дьяченко ва Л.А. Кандибович эса тайёргарликни шахснинг барқарор хусусияти сифатида баҳолаб, унинг билим, кўникма, мотив ва фаолиятга бўлган муносабатлар тизимини қамраб олишини таъкидлайдилар.

Бу қарашлардан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, иқтисодий компетенция шахсда туғма равишда мавжуд бўлмайди, балки ижтимоий муносабатлар, таълим жараёни ва амалий фаолият таъсирида шаклланадиган динамик тизим ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, педагогика олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий компетенциясини ривожлантириш уларнинг иқтисодий билим, кўникма ва малакаларини такомиллаштириш, иқтисодий вазиятларни таҳлил қилиш қобилиятини ривожлантириш, мустақил қарор қабул қилишга ўргатиш ҳамда иқтисодий муносабатларда масъулиятли иштирок этишини таъминлашга қаратилган узлуксиз педагогик жараён сифатида қаралиши лозим.

Замонавий иқтисодий муносабатлар шароитида талабалар иқтисодий жиҳатдан

қанчалик тайёр бўлса, улар ўз шахсий салоҳиятини шунчалик тўлиқ англайдилар, мураккаб ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилишга қодир бўладилар ҳамда билим, кўникма ва малакалардан онгли, масъулиятли ва ижодий фойдаланиш имкониятига эга бўладилар. Шу боис, талабаларнинг иқтисодий компетенциясини ривожлантириш жараёнини фақат иқтисодий билим бериш билан чеклаш мумкин эмас. Бу жараён таълим мазмуни, шакллари, методлари ва воситаларининг ўзаро уйғунлиги асосида ташкил этилиши лозим бўлган мураккаб педагогик тизим ҳисобланади.

Талабалар иқтисодий компетенциясини ривожлантиришнинг мазмуни уларда иқтисодий билимларни шакллантириш, иқтисодий муносабатларга нисбатан онгли муносабат ҳосил қилиш, иқтисодий қарор қабул қилиш кўникмаларини ривожлантириш, молиявий саводхонликни ошириш ва иқтисодий фаолиятга ижобий мотивацияни шакллантиришни қамраб олади. Бу эса талабаларнинг хулқ-атвори, иқтисодий фаоллиги, ташаббускорлиги ва молиявий маданиятида ўз ифодасини топади.

Педагогик таълим жараёнида талабаларнинг иқтисодий компетенциясини ривожлантиришни амалий жиҳатдан таъминлаш муайян педагогик вазифаларни ҳал қилишни талаб этади. Аввало, иқтисодий компетенция кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилувчи педагогик шарт-шароитларни аниқлаш ва ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади. Бу жараёнда таълим муҳити, инновацион педагогик технологиялар, амалий машғулотлар, иқтисодий мазмундаги кейслар, лойиҳавий фаолият ва интерфаол методлар муҳим восита сифатида намоён бўлади.

Шунингдек, педагогик таълимда талабалар иқтисодий компетенциясининг ривожланиш даражасини баҳолаш методикасини ишлаб чиқиш ҳам долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Чунки иқтисодий компетенциянинг шаклланганлик даражасини аниқлаш орқали талабаларнинг иқтисодий билимлари, иқтисодий тафаккури, иқтисодий муносабатларга тайёрлиги ва амалий фаолиятда иқтисодий қарор қабул қилиш қобилиятини баҳолаш имконияти яратилади. Бу эса ўз навбатида, иқтисодий компетенцияни ривожлантириш жараёнининг самарадорлигини аниқлашга хизмат қилади.

Мазкур вазифаларни амалга оширишда педагогик шарт-шароитлар алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, улар бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни ривожлантирувчи асосий ҳаракатлантирувчи омил сифатида намоён бўлади. Педагогик шарт-шароитлар талабаларнинг иқтисодий билимларни ўзлаштириши, иқтисодий фаолиятга қизиқиши, мустақил фикрлаши ва иқтисодий муносабатларда фаол иштирок этиши учун зарур имкониятларни яратади. Шу нуқтаи назардан, педагогик таълим жараёнида иқтисодий компетенцияни шакллантиришга хизмат қилувчи шарт-шароитларни илмий асосда ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш бугунги кунда долзарб педагогик вазифалардан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Шундай қилиб, иқтисодий компетенция олий таълим жараёнида босқичма-босқич шаклланадиган ҳамда муайян педагогик шарт-шароитлар асосида ривожлантириладиган мураккаб интегратив тузилма ҳисобланади. Бу жараённинг самарадорлиги эса педагогик таълим муҳитининг мақсадли ташкил этилиши, замонавий ўқитиш технологияларининг қўлланилиши ва талабаларнинг мустақил фаолиятини тўғри йўналтириш билан бевосита боғлиқдир. Шу нуқтаи назардан, бўлажак ўқитувчиларда иқтисодий компетенцияни ривожлантиришга хизмат қилувчи педагогик шарт-шароитларни илмий асосда белгилаш муҳим аҳамият касб этади.

Биринчи педагогик шарт сифатида иқтисодий компетенцияни ривожлантиришга йўналтирилган қўшимча ривожлантирувчи таълим дастурларини ишлаб чиқиш ва таълим жараёнига жорий этиш муҳим ҳисобланади. Мазкур дастурлар талабаларнинг иқтисодий билимларини чуқурлаштириш, иқтисодий тафаккурини ривожлантириш ҳамда иқтисодий жараёнларга нисбатан онгли муносабатни шакллантиришга хизмат қилади. Бундай

дастурларнинг мазмуни жамият иқтисодий ҳаёти, бозор муносабатлари, иқтисодий тараққиёт қонуниятлари, инсон капитали, тадбиркорлик, молиявий саводхонлик ва давлат иқтисодий сиёсати ҳақидаги билимларни қамраб олиши лозим.

Шу билан бирга, ушбу дастурларда иқтисодий билимларнинг назарий жиҳатлари билан бир қаторда амалий йўналишга ҳам алоҳида эътибор қаратилиши талаб этилади. Хусусан, иқтисодий вазиятларни таҳлил қилиш, молиявий режалаштириш, иқтисодий қарор қабул қилиш, ресурслардан самарали фойдаланиш каби кўникмаларни шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Бу жараёнда видеомаърузалар, кейс-стади технологияси, иқтисодий вазиятларга оид амалий машғулотлар, тақдимотлар, бизнес-ўйинлар, дебатлар ва викториналардан фойдаланиш талабаларнинг иқтисодий билимларни ўзлаштириш самарадорлигини оширади. Айниқса, иқтисодий жараёнларни реал ҳаётий мисоллар асосида таҳлил қилиш талабаларда иқтисодий воқеликни англаш ва иқтисодий фикрлаш қобилиятини ривожлантиришга хизмат қилади.

Иккинчи педагогик шарт – таълим жараёнида замонавий ва самарали педагогик технологиялардан фойдаланиш ҳисобланади. Бу эса бўлажак ўқитувчиларнинг когнитив фаоллигини ошириш, уларда мустақил фикрлаш ва иқтисодий жараёнларга ижодий ёндашувни шакллантириш имконини беради. Замонавий таълим технологиялари талабаларнинг нафақат билим олишини, балки уларнинг таҳлил қилиш, таққослаш, баҳолаш ва хулоса чиқариш қобилиятларини ҳам ривожлантиради. Шу нуқтаи назардан, ахборот-коммуникация технологияларини таълим жараёнига интеграция қилиш иқтисодий компетенцияни ривожлантиришнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади.

Бугунги рақамли таълим муҳитида электрон таълим платформалари, мультимедиа воситалари, виртуал симуляциялар, онлайн иқтисодий тренинглар ва интерактив дастурлардан фойдаланиш талабаларнинг иқтисодий билимларга бўлган қизиқишини оширади. Шунингдек, рақамли технологиялар орқали талабаларнинг таълим жараёнидаги фаоллигини мониторинг қилиш, уларнинг ўзлаштириш даражасини таҳлил қилиш ва индивидуал таълим траекториясини белгилаш имконияти пайдо бўлади. Замонавий ўқитиш технологияларидан фойдаланиш ўқитувчи ва талаба ўртасидаги ҳамкорликни кучайтиради ҳамда таълим жараёнини интерфаол ва самарали ташкил этишга хизмат қилади.

Учинчи педагогик шарт сифатида педагогика йўналиши талабаларининг иқтисодий фанларни ўрганишдаги мустақил фаолиятини самарали ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади. Чунки замонавий таълим тизими талабаларнинг мустақил таълим олиш қобилиятини ривожлантиришни, уларни мустақил изланиш ва таҳлил қилишга ўргатишни талаб қилади. Мустақил таълим жараёнида талабалар иқтисодий билимларни фақат тайёр ҳолда қабул қилмайди, балки уларни таҳлил қилади, умумлаштиради ва амалиётда қўллашга ҳаракат қилади. Бу эса уларнинг иқтисодий компетенциясини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Замонавий таълим талаблари асосида психологик, педагогик, ижтимоий ва иқтисодий билимларнинг ўзаро интеграцияси муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу боис, иқтисодий компетенцияни ривожлантириш жараёнида фанлараро ёндашувдан фойдаланиш талаб этилади. Фанлараро интеграция орқали талабалар иқтисодий билимларни педагогик фаолият билан боғлаш имкониятига эга бўладилар. Масалан, таълим менежменти, таълим иқтисодиёти, молиявий саводхонлик, лойиҳавий фаолият ва инновацион таълим технологияларини ўзаро боғлиқ ҳолда ўрганиш бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий тафаккурини ривожлантиришга хизмат қилади.

Шу билан бирга, талабаларнинг мустақил иқтисодий фаолиятини ташкил этишда ижтимоий-иқтисодий лойиҳалар, стартап ғоялар, бизнес режалар ишлаб чиқиш, иқтисодий таҳлилга оид топшириқлар ва амалий кейслардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Бундай фаолият талабаларда ташаббускорлик, иқтисодий масъулият, ижодий ёндашув ва амалий иқтисодий кўникмаларни шакллантиради. Бу эса ўз навбатида, бўлажак

ўқитувчиларнинг замонавий меҳнат бозори талабларига мос рақобатбардош мутахассис сифатида шаклланишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сон “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ–5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ–6079-сон “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
4. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
5. Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1973.
6. Ибн Сино. Донолик дурдоналари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981.
7. Навоий Алишер. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
8. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
9. Абдураҳмонов Қ.Х. Инсон капитали ва иқтисодий тараққиёт. – Тошкент: Фан, 2013.
10. Ваҳобов А.В., Тожибоева Д.Н. Иқтисодий билим асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019.
11. Шодмонов Ш.Ш. Иқтисодиёт назарияси. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2020.
12. Becker G. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
13. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
14. Samuelson P. Economics. – New York: McGraw-Hill, 2004.
15. Isaev I.F. Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelya. – Moskva: Akademiya, 2002.
16. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya. – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
17. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – Moskva: Znaniye, 1996.
18. Slastenin V.A. Pedagogika: innovatsionnaya deyatelnost. – Moskva: Magistr, 2013.
19. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetensii kak rezultat sovremennogo obrazovaniya // Vysshee obrazovanie segodnya. – 2003. – №5. – S. 34–42.
20. Dyachenko M.I., Kandybovich L.A. Psixologicheskie problemy gotovnosti k deyatelnosti. – Minsk: BGU, 1976.
21. Kobozeva I.S., Chinyakova Yu.V. Razvitie ekonomicheskoy kompetentnosti studentov pedagogicheskogo vuza // Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya. – 2017. – №4.

РЕФЛЕКСИВ-АКСИОЛОГИК ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ДЕОНТОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Идиева Лола Бахтиёровна

Аннотация: Мазкур мақолада рефлексив-аксиологик ёндашув асосида бўлажак кимё фани ўқитувчиларининг деонтологик компетенциясини ривожлантириш масалалари таҳлил қилинган. Тадқиқотда бўлажак кимё ўқитувчиларида педагогик бурч, касбий масъулият, экологик маданият, кимёвий хавфсизликка оид қадриятли муносабат ҳамда рефлексив фикрлашни шакллантиришнинг назарий-педагогик асослари ёритилган. Шунингдек, кимё таълими жараёнида деонтологик компетенцияни ривожлантиришга хизмат қилувчи педагогик шарт-шароитлар, интерфаол методлар, рақамли технологиялар ва компетенциявий ёндашув имкониятлари таҳлил этилган. Мақолада бўлажак кимё фани ўқитувчиларининг деонтологик компетенцияси даражасини аниқлашга доир диагностик ёндашувлар ҳамда уларнинг самарадорлик кўрсаткичлари келтирилган.

Калит сўзлар: деонтологик компетенция, рефлексив-аксиологик ёндашув, бўлажак кимё фани ўқитувчиси, кимё таълими, педагогик масъулият, касбий бурч, педагогик этика, экологик маданият, кимёвий хавфсизлик, рефлексия, қадриятли муносабат.

Замонавий таълим сифати ва педагог кадрлар тайёргарлиги самарадорлигини ошириш бугунги кунда жаҳон педагогик ҳамжамиятидаги энг долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Айниқса, глобаллашув, рақамлаштириш ва инновацион технологиялар жадал ривожланаётган шароитда бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини замонавий талаблар асосида шакллантириш муҳим аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистонда ҳам таълим тизимини модернизация қилиш, педагог кадрлар салоҳиятини ошириш ва рақобатбардош мутахассислар тайёрлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сонли “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонида таълим сифатини ошириш, инсон капитали ривожини таъминлаш, замонавий билим ва компетенцияларга эга педагог кадрлар тайёрлаш муҳим вазифалар сифатида белгиланган. Шунингдек, “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”да ҳам бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини, маънавий-ахлоқий сифатларини ва педагогик масъулиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган.

Ҳозирги кунда бўлажак ўқитувчилар нафақат ўз мутахассислик фанини чуқур билиши, балки педагогик этика, ҳуқуқий меъёрлар, касбий бурч ва таълим жараёни иштирокчилари билан муносабатларни тўғри ташкил этишга оид амалий кўникмаларга ҳам эга бўлиши талаб этилмоқда. Айниқса, бўлажак кимё фани ўқитувчилари учун бу масала янада муҳим аҳамият касб этади. Чунки кимё таълими жараёнида лаборатория хавфсизлиги, экологик масъулият, ўқувчилар саломатлигини муҳофаза қилиш, кимёвий моддалар билан ишлаш маданияти ва педагогик жавобгарлик деонтологик компетенциянинг муҳим таркибий қисмлари ҳисобланади.

Бироқ мазкур масалани амалий жиҳатдан ҳал қилиш жараёнида қатор зиддиятлар кузатилмоқда. Бир томондан, замонавий жамият ва таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланишга, мустақил таълим олишга ва “ҳаёт давомида таълим” концепциясига бўлган эҳтиёж кучайиб бормоқда. Иккинчи томондан эса, олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш жараёнида назарий билимларга ортиқча урғу берилиб, касбий-деонтологик ва амалий тайёргарлик етарли даражада шакллантирилмаяпти. Бу эса бўлажак

педагогларнинг касбий фаолиятда турли муаммоли вазиятларни ҳал қилиш, педагогик этика талабларига риоя қилиш ва таълим иштирокчилари билан самарали муносабат ўрнатиш қобилиятига салбий таъсир кўрсатмоқда.

Педагогик таълим тизимида мазкур зиддиятларни бартараф этиш мақсадида таълим жараёнига компетенциявий ёндашувни жорий этиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Компетенциявий ёндашув таълим натижаларини фақат билим, кўникма ва малакалар билан эмас, балки шахснинг амалий фаолиятга тайёрлиги, мустақил қарор қабул қилиш қобилияти ва касбий масъулияти билан баҳолашни назарда тутади. Бу ёндашув Р. Атаханов, И.А. Зимняя, Е.В. Бондаревская, Д.И. Фельдштейн, И.С. Якиманская каби олимларнинг тадқиқотларида кенг ёритилган бўлиб, улар таълим мазмунини шахснинг ҳаётий ва касбий муаммоларни ҳал қилиш тажрибаси билан боғлаш зарурлигини таъкидлайдилар.

Мазкур ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда деонтологик компетенцияни ривожлантириш таълим жараёнининг муҳим вазифаларидан бири сифатида намоён бўлади. Деонтологик компетенция педагогнинг касбий бурчи, ахлоқий меъёрларга риоя қилиши, педагогик масъулияти, инсонпарварлик муносабати ва касбий этика қоидаларига амал қилиш қобилиятини ифодалайди. Шу нуқтаи назардан, бўлажак кимё фани ўқитувчиларида деонтологик компетенцияни шакллантириш нафақат касбий тайёргарликнинг таркибий қисми, балки таълим сифати ва хавфсизлигини таъминловчи муҳим омил сифатида қаралиши лозим.

Юқорида қайд этилган фанлараро боғлиқликлардан келиб чиққан ҳолда, педагогик таълим жараёнида “Таълим менежменти”, “Таълимнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари”, “Педагогик маҳорат”, “Касбий педагогика”, “Кимё ўқитиш методикаси” каби фанлар доирасида деонтологик компетенцияни ривожлантириш имкониятлари мавжуд. Мазкур фанлар бўлажак ўқитувчиларга таълим соҳасидаги ҳуқуқий муносабатлар, педагогик этика, касбий бурч ва таълим жараёни иштирокчиларининг ҳуқуқий мақомини англаш имконини беради. Шу билан бирга, уларда педагогик фаолиятни рефлексив таҳлил қилиш, касбий қарор қабул қилиш ва касбий масъулиятни англаш кўникмалари шаклланади.

Таълим мазмунини янгилашнинг асосий йўналишларидан бири сифатида компетенциявий ёндашувни амалга ошириш таълим жараёнида қуйидаги талабларни белгилайди:

– талабаларнинг ижтимоий ва шахсий тажрибасига таянилган ҳолда турли педагогик ва касбий муаммоларни мустақил ҳал қилиш қобилиятини ривожлантириш;

– таълим мазмунини ҳаётий ва касбий аҳамиятга эга бўлган муаммолар билан боғлаш;

– бўлажак ўқитувчиларда рефлексив фикрлаш ва мустақил қарор қабул қилиш тажрибасини шакллантириш;

– таълим натижаларини ўз-ўзини баҳолаш, эксперт баҳоси ва рефлексив таҳлил асосида аниқлаш.

Шу жиҳатдан қараганда, рефлексив-аксиологик ёндашув асосида бўлажак кимё фани ўқитувчиларининг деонтологик компетенциясини ривожлантириш замонавий педагогик таълимнинг муҳим йўналишларидан бири сифатида долзарб аҳамият касб этади.

Компетенциявий ёндашув замонавий педагогик таълимнинг муҳим методологик асосларидан бири бўлиб, у бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг самарали шарти сифатида қаралади. Мазкур ёндашув таълим жараёнида талабаларнинг фақат назарий билимларни ўзлаштиришини эмас, балки уларнинг амалий фаолиятга тайёрлиги, мустақил қарор қабул қилиш қобилияти, касбий масъулияти ва шахсий сифатларини шакллантиришни ҳам назарда тутади. Шу нуқтаи назардан, бўлажак ўқитувчиларнинг профессионал компетентлиги ўз-ўзини таҳлил қилиш, ўзини ривожлантириш, рефлексив фикрлаш ва ахлоқий қадриятлар тизими билан боғлиқ касбий муҳим сифатларни ривожлантириш орқали таъминланади ҳамда педагогик маданиятнинг муҳим кўрсаткичи сифатида намоён бўлади.

Компетенциявий ёндашувнинг мазмун-моҳияти “компетенция” категорияси орқали

ифодаланади. В.И. Загвязинский компетенцияни муайян фаолиятга тайёрлик даражаси, билим ва ҳаракат усулларини ўзлаштириш даражаси сифатида талқин қилади. Унинг фикрича, компетенция шахснинг фақат маълум билимларга эга эканлигини эмас, балки ушбу билимларни амалий вазиятларда самарали қўллай олиш қобилиятини ҳам ифодалайди. Шу маънода, компетенция бўлажак ўқитувчининг касбий фаолиятни амалга оширишга тайёрлигини белгиловчи интегратив сифат ҳисобланади.

Замонавий педагогик тадқиқотларда компетенция таркибига когнитив, операцион-технологик, мотивацион, ахлоқий, ижтимоий-маданий, ижодий ва хулқий компонентлар киритилади. Мазкур компонентлар таълим натижаларини, жумладан, билим, кўникма ва малакаларни, қадриятлар тизимини, касбий муносабат ва шахсий одатларни қамраб олади. Шу нуқтаи назардан қараганда, бўлажак кимё фани ўқитувчиларининг компетентлиги нафақат кимёвий билимларни эгаллаш, балки педагогик масъулият, лаборатория хавфсизлиги, экологик маданият ва таълим жараёни иштирокчиларига нисбатан инсонпарвар муносабатни ҳам ўз ичига олади.

Компетенциявий ёндашув доирасида И.А. Филатова касбий компетенциянинг метадаражаси сифатида деонтологик компетенция тушунчасини илгари суради. Олиманинг фикрича, деонтологик компетенция – бу касбий хулқ-атвор меъёрларига асосланган педагогик фаолиятга назарий ва амалий тайёргарлик даражасидир. У таълим жараёни субъектларининг норматив-ҳуқуқий ва норматив-шахсий компонентлари ўртасидаги ўзаро боғлиқликни ифодалайди. Мазкур ёндашув бўлажак ўқитувчиларда ҳуқуқий билимлар, педагогик этика, касбий бурч ва шахсий масъулиятни шакллантириш зарурлигини кўрсатади.

Деонтологик компетенциянинг мазмуни норматив-ҳуқуқий билимлар, ижтимоий-психологик тайёргарлик ва шахсий фазилатларнинг бирлиги орқали намоён бўлади. Бу эса бўлажак ўқитувчига мураккаб ижтимоий-маданий шароитларда эркин ҳаракат қилиш, педагогик қарорларни масъулият билан қабул қилиш ва таълим тизимидаги муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан тўғри ташкил этиш имконини беради. Айниқса, бўлажак кимё фани ўқитувчилари учун деонтологик компетенция лаборатория фаолиятини хавфсиз ташкил этиш, кимёвий моддалар билан ишлаш маданиятига риоя қилиш, экологик масъулиятни англаш ва ўқувчилар саломатлигини муҳофаза қилиш билан бевосита боғлиқдир.

О.В. Лебедева деонтологик компетенция тушунчасини янада кенгроқ талқин қилиб, уни бўлажак ўқитувчиларнинг фуқаролик компетентлиги таркибий қисми сифатида қараб чиқади. Олиманинг фикрича, фуқаролик компетентлиги сиёсий, ҳуқуқий, ватанпарварлик ва ахлоқий компетенцияларни бирлаштирувчи профессионал-шахсий сифат бўлиб, шахснинг таълим жараёнида ҳуқуқий ва маънавий қадриятларга асосланган ҳолда фаолият юритиш қобилиятини ифодалайди. Бу қараш деонтологик компетенциянинг фақат ҳуқуқий билимлар билан чекланмасдан, балки шахснинг ахлоқий позицияси ва қадриятли муносабатларини ҳам қамраб олишини кўрсатади.

Шу нуқтаи назардан, бўлажак ўқитувчининг деонтологик компетенцияси ҳуқуқий компетенция мазмунини ҳам ўзида акс эттиради. Ҳуқуқий компетенция таълим жараёни иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини билиш, таълим соҳасидаги меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни англаш, қонунларга риоя қилиш ҳамда касбий фаолиятда ҳуқуқий билимлардан фойдаланиш қобилиятини қамраб олади. Демак, деонтологик компетенция бўлажак ўқитувчининг педагогик фаолиятни ҳуқуқий ва ахлоқий меъёрлар асосида ташкил этишга тайёрлигини белгилайди.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, педагогик йўналишда таҳсил олаётган талабалар “ўқитувчининг деонтологик компетенцияси” тушунчасини асосан ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини билиш, ўқувчилар билан тўғри мулоқот қилиш, касбий сифатларни педагогик фаолиятга мослаштириш ва шахсий ҳамда касбий сифатлар уйғунлиги сифатида талқин қиладилар. Бироқ уларнинг аксарияти деонтологик компетенциянинг амалий фаолият, муаммоли педагогик вазиятлар ва муайян норматив-ҳуқуқий масалаларни ҳал

қилиш билан боғлиқ жиҳатларини етарли даражада англаб етмайдилар.

Бу ҳолат бўлажак ўқитувчиларда деонтологик компетенцияни шакллантириш жараёнида назарий билимлар билан амалий фаолиятнинг ўзаро интеграциясини таъминлаш зарурлигини кўрсатади. Шу сабабли, педагогик таълим жараёнида рефлексив-аксиологик ёндашув асосида деонтологик компетенцияни ривожлантириш, талабаларда педагогик масъулият, касбий бурч, ахлоқий қадриятлар ва ҳуқуқий маданиятни шакллантириш бугунги кунда муҳим педагогик вазифалардан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Ҳозирги вақтда таълим тизимида кенг қўлланилаётган компетенциявий ёндашув талабаларнинг мустақил таълим фаолиятини кучайтириш, интерфаол ва амалий йўналтирилган машғулотларни кенг жорий этишни тақозо этмоқда. В.И. Загвязинскийнинг таъкидлашича, талабаларнинг ташкил этилган мустақил иши уларда ўз-ўзини ривожлантириш ва узлуксиз таълимга тайёрликни шакллантиради. Шу маънода мустақил таълим талабаларнинг билим олишга бўлган ички эҳтиёжини кучайтирувчи муҳим педагогик омил ҳисобланади.

П.И. Пидкасистий мустақил ишни олий таълимда талабалар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришнинг ўзига хос педагогик воситаси сифатида баҳолайди. Олимнинг фикрича, мустақил иш бир томондан ўқитувчи томонидан режалаштирилган таълимий вазифа бўлса, иккинчи томондан талабанинг ушбу вазифани мустақил амалга ошириш жараёнидир. М.Г. Гарунов эса мустақил ишни касбий билимлар тизимини ўзлаштириш, тадқиқотчилик қобилиятини ривожлантириш, ижодий фаолликни кучайтириш ва касбий маҳоратни шакллантириш воситаси сифатида талқин қилади.

Шу нуқтаи назардан қараганда, педагогик тадқиқотларда мустақил иш бир вақтнинг ўзида ҳам талабалар фаоллигини ва когнитив қизиқишини рағбатлантирувчи таълим шакли, ҳам уларнинг кейинги касбий ривожланиши учун асос бўлиб хизмат қилувчи педагогик шарт сифатида қаралади. Бу эса бўлажак кимё фани ўқитувчиларининг деонтологик компетенциясини ривожлантиришда мустақил таълимнинг муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади.

Курс доирасида мустақил ишларни ташкил этиш талабаларнинг касбий қизиқиши, таълим муҳити, ўқитувчининг раҳбарлик услуби ва назорат шаклларига боғлиқ ҳолда амалга оширилади. Мустақил ишлар қуйидаги турларга ажратилади: – аудитория машғулотлари жараёнида амалга ошириладиган мустақил ишлар; – таълимий ва ижодий характерга эга бўлган аудиториядан ташқари мустақил ишлар; – ўқитувчи раҳбарлиги остида консультациялар, ижодий лойиҳалар, тестлар ва тақдимотлар орқали ташкил этиладиган мустақил ишлар.

Аудиториядан ташқари мустақил фаолиятни ривожлантиришда модулли ўқитиш технологияларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Модулли технологиялар талабаларнинг мустақил фикрлашини, ўз-ўзини назорат қилишини ва муаммоларни мустақил ҳал қилиш қобилиятини ривожлантириш имконини беради. Айниқса, деонтологик компетенцияни ривожлантириш жараёнида рефлексив топшириқлар, таҳлилий жадваллар, муаммоли вазиятлар таҳлили ва ҳуқуқий-педагогик кейслардан фойдаланиш самарали натижалар беради.

“Таълим тизими” мавзусининг таълимий имкониятларидан бўлажак ўқитувчиларнинг деонтологик компетенциясини ривожлантиришда самарали фойдаланиш мумкин. Мазкур мавзуда қуйидаги дидактик вазифаларни амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади:

– “таълим тизими”, “таълим стандарти”, “таълим дастури”, “таълим олиш шакллари”, “таълим муассасаси муассиси” каби асосий тушунчаларни ўзлаштириш;

– таълим тизимининг республика, ҳудудий ва муассаса даражасидаги бошқарув механизмларини англаш;

– таълим муассасалари фаолиятини ташкил этишга қўйиладиган асосий талабларни

таҳлил қилиш;

– таълим муассасалари турлари ва уларнинг фаолият хусусиятларини тавсифлаш;

– таълим муассасаси устави ва меъёрий ҳужжатлари билан ишлаш кўникмаларини шакллантириш.

Мазкур вазифаларни амалга оширишда модулли ўқитиш технологиялари, мустақил таълим, рефлексив топшириқлар ва ҳуқуқий-педагогик кейслар муҳим аҳамиятга эга. Айниқса, бўлажак кимё фани ўқитувчилари учун лаборатория хавфсизлиги, санитария қоидалари, экологик масъулият, ўқувчилар ҳаёти ва саломатлигини муҳофаза қилишга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан ишлаш муҳим деонтологик вазифалардан бири ҳисобланади. Шу сабабли, таълим жараёнида амалий йўналтирилган топшириқлардан фойдаланиш талабаларнинг касбий масъулияти ва ҳуқуқий маданиятини ривожлантиришга хизмат қилади.

Тадқиқот жараёнида “Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция”, Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни, “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва таълим соҳасига оид бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида таҳлилий жадваллар тузиш, ҳуқуқий вазиятларни таҳлил қилиш ва муаммоли кейслар ечими бўйича мустақил ишлар ташкил этилди. Бу эса талабаларнинг ҳуқуқий билимларини чуқурлаштириш, деонтологик компетенциясини ривожлантириш ва таълим соҳасидаги ҳуқуқий муносабатларга нисбатан масъулиятли муносабатини шакллантириш имконини берди.

Шу билан бирга, мустақил таълим жараёни талабаларнинг когнитив фаоллиги, ижодий фикрлаши ва рефлексив таҳлил қобилиятини ривожлантиришга хизмат қилди. Айниқса, модулли технологиялар асосида ташкил этилган мустақил ишлар талабаларнинг ўз-ўзини баҳолаш, ўз фаолиятини таҳлил қилиш ва касбий ривожланишга бўлган эҳтиёжини кучайтиришга ёрдам берди.

Тадқиқот натижаларини аниқлаш мақсадида бўлажак ўқитувчиларнинг деонтологик компетенциясини баҳолашга қаратилган диагностик жараён амалга оширилди. Диагностика жараёнида когнитив, репродуктив ва фаолиятли даражалар бўйича баҳолаш мезонлари ишлаб чиқилди. Когнитив даража талабаларнинг таълим соҳасига оид норматив-ҳуқуқий билимлари, давлат таълим сиёсати ва таълим тизими фаолияти ҳақидаги назарий тушунчалари орқали аниқланди. Репродуктив даража эса талабаларнинг олинган билимларни таълим амалиётида қўллай олиш қобилияти, норматив ҳужжатларни таҳлил қилиш ва таълим муассасасини бошқариш билан боғлиқ вазифаларни ҳал қилиш кўникмалари орқали баҳоланди. Фаолиятли даража талабаларнинг реал педагогик вазиятларда ҳуқуқий ва деонтологик билимлардан фойдаланиши, таълим жараёни иштирокчиларига амалий ёрдам кўрсатиши ва касбий масъулиятни намоён қилиши билан белгиланди.

Ўтказилган тадқиқот натижалари талабаларнинг аксариятида деонтологик компетенциянинг когнитив ва репродуктив даражалари шаклланганлигини, бироқ фаолиятли даражанинг етарли эмаслигини кўрсатди. Бу ҳолат, асосан, талабаларнинг реал педагогик фаолият ва амалий тажрибага етарли даражада эга эмаслиги билан изоҳланади. Айниқса, бўлажак кимё фани ўқитувчиларида лаборатория жараёнларини ташкил этиш, хавфсизлик қоидаларига риоя қилиш, муаммоли вазиятларда тўғри қарор қабул қилиш ва ўқувчилар билан ҳуқуқий-ахлоқий муносабатларни самарали йўлга қўйишга оид амалий кўникмаларни ривожлантириш зарурлиги аниқланди.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, деонтологик компетенциянинг фаолиятли даражасини ривожлантириш учун таълим жараёнига ижодий топшириқлар, ҳуқуқий-педагогик кейслар, ролли ўйинлар, рефлексив машғулотлар ва илмий-тадқиқот фаолиятини кенг жорий этиш мақсадга мувофиқдир. Айниқса, талабаларнинг мустақил илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш уларнинг касбий-ижодий ўсиши, ўз-ўзини ривожлантириши ва деонтологик компетенциясини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Шундай қилиб, таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш жараёнига янги талабларни қўймоқда. Бу талаблар, энг аввало, бўлажак ўқитувчиларнинг деонтологик компетенциясини ривожлантириш, уларда педагогик масъулият, ҳуқуқий маданият, касбий бурч ва рефлексив фикрлашни шакллантириш билан боғликдир. Рефлексив-аксиологик ёндашув асосида деонтологик компетенцияни ривожлантириш эса бўлажак кимё фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш, уларнинг амалий фаолиятга тайёрлигини кучайтириш ва замонавий таълим муҳитида рақобатбардош педагог сифатида шаклланишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2020.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сон “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ–5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2008.
5. Загвязинский В.И. Теория обучения: современная интерпретация. – Москва: Академия, 2001.
6. Пидкасистый П.И. Организация учебно-познавательной деятельности студентов. – Москва: Педагогическое общество России, 2004.
7. Гарунов М.Г. Самостоятельная работа студентов в профессиональном образовании. – Москва: Высшая школа, 2008.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат современного образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.
9. Филатова И.А. Деонтологическая компетентность педагога как компонент профессиональной подготовки // Педагогическое образование и наука. – 2010. – №7. – С. 52–56.
10. Лебедева О.В. Формирование гражданской и деонтологической компетентности будущего учителя. – Санкт-Петербург: РГПУ им. А.И. Герцена, 2011.
11. Bykova S.S. Развитие деонтологической компетентности будущих педагогов // Педагогическое образование в России. – 2012. – №4. – С. 45–51.

IJTIMOIY INSTITUTLAR HAMKORLIGI ASOSIDA O‘QITUVCHI OBRO‘YINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Kamalov Azamat Jamalovich,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qituvchi obro‘yini oshirishning timoiy-pedagogik asoslari yoritiladi. O‘qituvchi nufuzi ta’lim sifati, yosh avlod tarbiyasi, jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq ekani tahlil qilinadi. Oila, mahalla, ta’lim muassasasi, davlat, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro aloqasi pedagog obro‘yini shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Maqolada obro‘, nufuz va ijtimoiy maqom tushunchalari farqlanadi, o‘qituvchi obro‘yining tarkibiy qismlari ilmiy nuqtai nazardan asoslanadi. O‘qituvchiga hurmatning kuchayishi pedagogik ta’sir samaradorligini oshirishi, ta’lim jarayonida sog‘lom muhit yaratishi va yoshlarning pedagog kasbiga qiziqishini kuchaytirishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi obro‘yi, ijtimoiy institutlar, pedagogik hamkorlik, ijtimoiy maqom, kasbiy nufuz, ta’lim sifati, ma’naviy muhit.

Abstract. This article examines the socio-pedagogical foundations of increasing teacher prestige. It analyzes the close connection between teacher reputation, quality of education, moral upbringing of the younger generation, and the spiritual development of society. The interaction of family, neighborhood community, educational institutions, the state, the public, and mass media is interpreted as a key factor in the formation of teacher prestige. The concepts of prestige, professional authority, and social status are differentiated, and the structural components of teacher prestige are substantiated from a scientific perspective. The article argues that strengthening respect for teachers enhances pedagogical influence, improves the educational environment, and increases young people’s interest in the teaching profession.

Keywords: teacher prestige, social institutions, pedagogical cooperation, social status, professional authority, quality of education, moral environment.

Аннотация. В статье рассматриваются социально-педагогические основы повышения престижа учителя. Анализируется тесная связь авторитета педагога с качеством образования, воспитанием молодого поколения и духовным развитием общества. Взаимодействие семьи, махалли, образовательных учреждений, государства, общественности и средств массовой информации трактуется как важный фактор формирования авторитета учителя. Разграничиваются понятия «престиж», «профессиональный авторитет» и «социальный статус», раскрываются структурные компоненты учительского авторитета. Подчеркивается, что укрепление уважения к учителю усиливает педагогическое воздействие, улучшает образовательную среду и повышает интерес молодежи к педагогической профессии.

Ключевые слова: престиж учителя, социальные институты, педагогическое сотрудничество, социальный статус, профессиональный авторитет, качество образования, нравственная среда.

Globallashuv, raqamli taraqqiyot va axborot oqimining keskin kuchayishi davrida o‘qituvchi shaxsiga bo‘lgan talab yangi bosqichga ko‘tarildi. Endi pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchi shaxsining dunyoqarashi, ma’naviy qiyofasi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi yetakchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim tizimining muvaffaqiyati darslik, bino yoki texnologiyagagina emas, avvalo, o‘qituvchining shaxsiy ta’siri va jamiyatdagi e’tiboriga bog‘liq.O‘qituvchi obro‘yi haqida so‘z borganda, bu tushunchani oddiy hurmat darajasi bilan cheklab bo‘lmaydi. U pedagogning kasbiy mahorati, axloqiy tozaligi, jamoatchilik ishonchi, ota-onalar bilan munosabati, o‘quvchilar qalbidagi o‘rni hamda ta’lim tizimidagi mavqeini

birlashtiruvchi ko‘p qatlamli hodisadir. Obro‘ning mustahkamligi ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. O‘quvchi ko‘nglida ustozga nisbatan ishonch yuqori bo‘lsa, bilimni qabul qilish ham, tarbiyaviy ta’sir ham ancha kuchli kechadi.Jamiyat taraqqiyoti bilimli, axloqan yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli avlodni talab qiladi. Bunday avlodni voyaga yetkazishda o‘qituvchi markaziy subyektdir. Demak, pedagog obro‘yini oshirish biror alohida muassasaning emas, butun jamiyatning vazifasidir. Ana shu nuqtada ijtimoiy institutlar hamkorligi masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Obro‘, nufuz va ijtimoiy maqom tushunchalarining ilmiy talqini ilmiy adabiyotlarda obro‘, nufuz va ijtimoiy maqom ko‘pincha yaqin ma’noda qo‘llanadi. Biroq ularning har biri alohida mazmunga ega. Ijtimoiy maqom shaxsning jamiyatdagi rasmiy o‘rni bilan belgilanadi. O‘qituvchi kasbi qonuniy maqomga ega, uning huquq va majburiyatlari belgilangan. Lekin rasmiy maqomning o‘zi yuqori obro‘ni kafolatlamaydi.Kasbiy nufuz pedagogning o‘z professional muhitidagi e’tirofini ifodalaydi. Bu o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, dars o‘tish uslubi, shogirdlari yutug‘i, hamkasblari orasidagi salohiyati bilan namoyon bo‘ladi. Obro‘ esa bularning yanada kengroq ko‘rinishi bo‘lib, unda kasbiy muvaffaqiyat bilan bir qatorda shaxsiy fazilat, axloqiy namuna, ijtimoiy ishonch, jamoatchilik bahosi ham mujassam bo‘ladi. Pedagogik nuqtai nazardan obro‘ quyidagi tarkibiy qismlardan tuziladi: kasbiy kompetensiya; muloqot madaniyati; axloqiy tozalik; adolat va talabchanlik; jamoatchilik oldidagi ishonchlilik; shaxsiy namuna.

Agar ushbu omillardan biri susaysa, umumiy ta’sir kuchi ham pasayadi. Demak, o‘qituvchi obro‘yi individual sifat emas, balki ijtimoiy muhit va institutsional qo‘llab-quvvatlash bilan birga shakllanadigan tizimli hodisadir.Ijtimoiy institutlar va ularning pedagog obro‘yini shakllantirishdagi o‘rniIjtimoiy institutlar jamiyat hayotini tartibga soluvchi, muayyan qadriyat va xulq me’yorlarini mustahkamlovchi tizimlardir. O‘qituvchi obro‘yini shakllantirishda oila, mahalla, ta’lim muassasasi, davlat, jamoatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi. Bola o‘qituvchiga bo‘lgan dastlabki munosabatni oilada shakllantiradi. Agar ota-ona ustozni e’zozlash, uning mehnatini qadrlash, dars jarayoniga hurmat bilan yondashish madaniyatini singdirsa, o‘quvchida pedagogga nisbatan ijobiy ruhiy tayyorgarlik vujudga keladi. Aksincha, ota-onaning o‘qituvchi haqidagi salbiy gaplari bolada qarshilik, bepisandlik yoki ishonchsizlikni paydo qilishi mumkin. Mahalla o‘zbek jamiyatida katta tarbiyaviy kuchga ega ijtimoiy tuzilma hisoblanadi. Mahallada ustoz sha’ni himoya qilinsa, fidoyi pedagoglar tan olinsa, ta’lim jarayoniga jamoatchilik qo‘llovi berilsa, o‘qituvchining ijtimoiy faolligi ortadi. Mahalla pedagog bilan ota-onalar o‘rtasidagi ijtimoiy ko‘prik vazifasini ham bajaradi. Maktabdagi ichki muhit ham obro‘ shakllanishida katta ahamiyatga ega. Rahbariyatning pedagogga munosabati, jamoada sog‘lom psixologik muhit, xolis baholash tizimi, mehnatning e’tirof etilishi, innovatsion tashabbuslarning qo‘llab-quvvatlanishi o‘qituvchining ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi. Pedagog o‘z mehnati qadrlanadigan makonda kuchliroq namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi obro‘yi davlat siyosati bilan ham chambarchas bog‘liq. Huquqiy himoya, ijtimoiy kafolatlar, ish haqi, malaka oshirish tizimi, pedagog sha’nini himoya qiluvchi me’yorlar amalda ishlasa, bu kasb nufuzi ko‘tariladi. Qonun himoyasidagi o‘qituvchi o‘zini jamiyatda himoyalangan va qadrlangan shaxs sifatida his qiladi.Ommaviy axborot vositalariPedagog haqidagi ijtimoiy tasavvur ko‘p jihatdan OAV orqali shakllanadi. Teleko‘rsatuv, maqola, intervyu, hujjatli lavha, ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ustoz obrazini ommalashtiradi. Agar axborot maydonida o‘qituvchi fidoiy, bilimdon, ma’rifat yetkazuvchi shaxs sifatida ko‘rsatilsa, jamiyatdagi hurmat ham ortadi. Obro‘li o‘qituvchi dars jarayonida ortiqcha bosimsiz ham samarali ishlay oladi. O‘quvchi bunday ustoz ko‘rsatmasini faqat tashqi talab sifatida emas, ichki ehtiyoj sifatida qabul qiladi. Psixologik jihatdan ishonch mavjud bo‘lgan muhitda motivatsiya kuchayadi, muloqot ochiqlashadi, intizom tabiiy tarzda qaror topadi. Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining shaxsiy namunasiga asoslangan tarbiya eng kuchli usullardan biridir. O‘quvchilar ustozning kiyinish madaniyati, so‘zlashuvi, muomala uslubi, adolati, va’dasiga sodiqligi, muammoga yondashuvi

orqali tarbiyalanadi. Demak, obro‘ darsdan tashqari makonda ham davom etadigan ta’sir kuchidir. Yuqori obro‘ pedagogik jamoa ichida ham ijobiy iqlim hosil qiladi. Obro‘li pedagog tajriba almashishda faol bo‘ladi, yosh o‘qituvchilarga tayanch vazifasini bajaradi, innovatsion g‘oyalarni ilgari suradi. Maktabdagi sog‘lom muhit ko‘pincha ana shunday ijtimoiy liderlarning borligiga tayanadi.

O‘qituvchi obro‘yini kuchaytirish uchun bir yoqlama ish yetarli emas. Bu borada bir necha yo‘nalishning uyg‘unligi talab etiladi.

Birinchi yo‘nalish – kasbiy rivojlanish. Malaka oshirish, metodik mahoratni boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, ilmiy izlanish bilan shug‘ullanish obro‘ning kasbiy poydevorini mustahkamlaydi.

Ikkinchi yo‘nalish – axloqiy va kommunikativ yetuklik. O‘qituvchining bag‘rikengligi, pedagogik takt, empatiya, adolatli munosabat, o‘quvchi sha’niga hurmat bilan qarashi uning shaxsiy nufuzini oshiradi.

Uchinchi yo‘nalish – ijtimoiy himoya va rag‘bat. Maosh, mukofot, kasbiy yutuqning e’tirof etilishi, mehnat sharoitining yaxshilanishi ustozning ruhiy barqarorligini kuchaytiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish – jamoatchilik bilan aloqani mustahkamlash. Ota-onalar yig‘ilishi, mahalla bilan hamkorlik, ochiq darslar, ustoz-shogird anjumanlari, pedagoglar faoliyatini ommalashtirish bo‘yicha dasturlar obro‘ning ijtimoiy poydevorini kengaytiradi.

O‘qituvchi obro‘yi ta’lim sifatini belgilovchi, jamiyatning ma’naviy salohiyatini mustahkamlovchi, yosh avlodning ijtimoiy shakllanishiga kuchli ta’sir etuvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Uni faqat shaxsiy mahorat bilan izohlash yetarli emas. Oila, mahalla, maktab, davlat, jamoatchilik va axborot maydoni o‘zaro uyg‘un harakat qilgan taqdirdagina ustoz nufuzi barqaror tus oladi.Pedagogga nisbatan hurmatning ortishi ta’lim muassasasida sog‘lom muhitni yuzaga keltiradi, o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, yoshlar orasida pedagog kasbining jozibasini oshiradi. O‘qituvchi obro‘yini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy, tashkiliy, huquqiy va ma’naviy choralar jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. To‘xtaxodjayeva M.X., Nishonova S.K. Pedagogika nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. UNESCO. Recommendation concerning the Status of Teachers. Paris, 1966.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

MA’NAVIYATGA TAHDIDLAR: GLOBALLASHUV DAVRIDA DOLZARB MASALA

Latipov Ravshanbek Abdurashid o‘g‘li,
Milliy universitet erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida ma’naviyatga tahdid soluvchi omillar, ularning kelib chiqish sabablari hamda jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Zamonaviy axborot makonining kengayishi, ommaviy madaniyatning kirib kelishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri natijasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma’naviy merosga nisbatan yuzaga kelayotgan xavflar yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi g‘oyalar, madaniyatsizlik unsurlari hamda axborot xurujlari masalalari alohida e’tibor markazida bo‘ladi. Muallif tomonidan ma’naviy tahdidlarning oldini olish, milliy o‘zlikni asrash, ma’naviy immunitetni mustahkamlash bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, globallashuv, ma’naviy tahdidlar, axborot makoni, ommaviy madaniyat, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy xavfsizlik, madaniy meros, axborot xurujlari

УГРОЗЫ ДУХОВНОСТИ: АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Латипов Равшанбек Абдурашид угли,
Независимый исследователь Национального университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы, представляющие угрозу духовности в условиях глобализации, их причины возникновения и негативное влияние на общество с научно-теоретической точки зрения. Особое внимание уделяется расширению современного информационного пространства, влиянию массовой культуры, интернета и социальных сетей на национальные ценности, традиции и духовное наследие. Также анализируются вопросы воздействия деструктивных идей на сознание молодежи, элементы безнравственности и информационные атаки. Автор предлагает научно обоснованные рекомендации по предотвращению духовных угроз, сохранению национальной идентичности и укреплению духовного иммунитета общества.

Ключевые слова: духовность, глобализация, духовные угрозы, информационное пространство, массовая культура, национальные ценности, воспитание молодежи, духовная безопасность, культурное наследие, информационные атаки

THREATS TO SPIRITUALITY: A PRESSING ISSUE IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Latipov Ravshanbek Abdurashid o‘g‘li,
Independent researcher at the National University

Abstract. This article examines the factors threatening spirituality in the context of globalization, their underlying causes, and their negative impact on society from a scientific and theoretical perspective. Particular attention is paid to the expansion of the modern information space, the influence of mass culture, the internet, and social networks on national values, traditions, and spiritual heritage. The paper also highlights the impact of destructive ideas on the minds of young people, elements of moral degradation, and information attacks. The author proposes scientifically

grounded recommendations for preventing spiritual threats, preserving national identity, and strengthening the spiritual immunity of society.

Keywords: spirituality, globalization, spiritual threats, information space, mass culture, national values, youth education, spiritual security, cultural heritage, information attacks

KIRISH. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning muhim xususiyatlaridan biri sifatida e’tirof etilayotgan globallashuv jarayoni jahon hamjamiyatining barcha sohalarida chuqur tizimli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayon iqtisodiy integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji hamda madaniy aloqalarning kengayishi bilan bir qatorda, jamiyat ma’naviy hayotiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, globallashuv sharoitida turli madaniyatlar, qadriyatlar va g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayib, bu holat milliy ma’naviy tizimlarning barqarorligiga nisbatan yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan ma’naviy tahdidlar ko‘p qirrali va murakkab xarakterga ega bo‘lib, ular bevosita va bilvosita omillar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday tahdidlar qatoriga ommaviy madaniyat ekspansiyasi, axborot makonida destruktiv g‘oyalar tarqalishi, milliy qadriyatlarning transformatsiyaga uchrashi hamda ijtimoiy ongda iste’molchilik psixologiyasining kuchayishi kabi holatlar kiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va global axborot tarmoqlarining kengayishi natijasida ma’naviy makonda yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar an’anaviy ijtimoiy institutlar faoliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur muammo doirasida alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlardan biri — yosh avlod ongiga ta’sir etuvchi omillarning ortib borayotganidir. Chunki yoshlar ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar jarayonida eng sezgir qatlam hisoblanib, ularning ma’naviy dunyoqarashi turli tashqi ta’sirlar ostida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, ma’naviy tahdidlarni ilmiy asosda o‘rganish, ularning kelib chiqish mexanizmlarini aniqlash hamda profilaktik choralarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI. Avvalo, ma’naviyat tushunchasining mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda shaxs kamolotidagi ahamiyati bir qator mahalliy olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Xususan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyayev asarlarida ma’naviyat jamiyatning mustahkam tayanchi, milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida talqin etilib, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi ta’kidlanadi. Uning ilmiy-ijtimoiy qarashlarida globallashuv sharoitida yoshlar ongini turli zararli g‘oyalardan himoya qilish, milliy qadriyatlarni asrash zarurligi alohida qayd etiladi.

Shuningdek, o‘zbek olimlari tomonidan globallashuv jarayonining ma’naviy hayotga ta’siri keng tahlil qilingan. Ular globallashuvni ikki tomonlama jarayon sifatida baholab, bir tomondan taraqqiyot omili, ikkinchi tomondan esa ma’naviy tahdidlar manbai sifatida ko‘rsatadilar. Bu borada milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni saqlash va ma’naviy immunitetni shakllantirish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida ajralib turadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida globallashuv nazariyasi va uning ijtimoiy-madaniy oqibatlarini o‘rganishga katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, Anthony Giddens globallashuvni zamonaviy jamiyatning asosiy xususiyati sifatida izohlab, uning ijtimoiy institutlar va inson ongiga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, globallashuv natijasida makon va vaqt chegaralari qisqarib, turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayadi, bu esa an’anaviy qadriyatlarning transformatsiyasiga olib keladi.

Bundan tashqari, Samuel P.Huntington tomonidan ilgari surilgan sivilizatsiyalar to‘qnashuvi konsepsiyasida globallashuv sharoitida madaniy va diniy farqlar asosiy ziddiyat manbai sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv ma’naviy tahdidlarni tushunishda muhim nazariy asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi, chunki u global miqyosda qadriyatlar qarama-qarshiligining kuchayishini ko‘rsatadi.

Axborot makoni va ommaviy madaniyatning jamiyatga ta’siri masalalari ham zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Tadqiqotchilar ommaviy madaniyatning standartlashuv va

iste'molchilik qadriyatlarini targ'ib etishi, milliy madaniy identifikatsiyaning zaiflashishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axborot oqimlarining nazoratsizligi ma'naviy tahdidlarning yangi shakllarini yuzaga keltirayotganligi qayd etiladi.

Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy tahdidlar muammosi kompleks yondashuvni talab etadi. Ya'ni, ushbu masalani faqat madaniy yoki mafkuraviy jihatdan emas, balki ijtimoiy, siyosiy, psixologik va axborot texnologiyalari nuqtai nazaridan ham o'rganish zarur. Umuman olganda, tahlil etilgan ilmiy manbalar globallashuv jarayonida ma'naviyatga tahdidlar masalasi dolzarb va ko'p qirrali muammo ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, mazkur maqolada mavjud ilmiy yondashuvlar asosida muammoning mohiyati yanada chuqurroq ochib beriladi hamda uni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODLARI. Mazkur tadqiqotni olib borishda ijtimoiy-gumanitar fanlarga xos ilmiy metodlardan kompleks foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez metodlari orqali globallashuv va ma'naviy tahdidlar masalasiga oid ilmiy manbalar o'rganilib, umumlashtirildi.

Qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli yondashuvlar va tajribalar solishtirildi, tarixiylik va mantiqiylik metodlari asosida esa ma'naviy jarayonlarning rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi.

Shuningdek, induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali nazariy xulosalar shakllantirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

ASOSIY QISM. Globallashuv jarayoni XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jahon taraqqiyotining eng muhim tendensiyalaridan biriga aylandi. 1990-yillardan boshlab internet tarmog'ining keng ommalashuvi (1991-yilda World Wide Web tizimining joriy etilishi) axborot almashinuvini misli ko'rilmagan darajada tezlashtirdi. Bugungi kunga kelib, dunyo aholisining 5,3 milliarddan ortig'i internetdan foydalanadi (2024–2025 yillarga oid xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra), bu esa axborot makonining global tus olganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu ochiqlik ma'naviy tahdidlarning ham keng tarqalishiga zamin yaratmoqda.

Globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlarning eng keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri — ommaviy madaniyatning (mass culture) kuchayishidir. Xususan, G'arb media mahsulotlarining global bozorda ustunlik qilishi natijasida mahalliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlar ayrim hollarda ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda 40% dan ortiq kichik tillardagi madaniy kontentlar yo'qolish xavfi ostida qolmoqda. Bu esa madaniy diversitetning kamayishi va ma'naviy bir xillashuv (homogenizatsiya) jarayonining kuchayishini anglatadi.

Ma'naviy tahdidlar, ayniqsa, yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, o'smirlar va yoshlar kuniga o'rtacha 6–8 soat vaqtini raqamli qurilmalarda o'tkazadi. Bu holat ularning qadriyatlar tizimi shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. 2019–2023 yillarda o'tkazilgan ayrim sotsiologik so'rovlarda yoshlarning 60% dan ortig'i axborot manbalarini tanlashda tanqidiy fikrlashdan yetarli darajada foydalanmasligi aniqlangan. Bu esa ularni turli manipulyativ axborotlarga nisbatan zaif qilib qo'yadi.

Ma'naviyat masalasi har doim jamiyat taraqqiyotining markaziy omili bo'lib kelgan. Alisher Navoiy "Ko'ngil ko'zi ochiq bo'lmasa, ko'z ko'rgan narsa ham foyda bermas" degan mazmundagi fikrlari orqali inson ma'naviyati moddiy boylikdan ustun ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidir" deb, ma'naviy tarbiyaning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi o'rnini asoslab bergan. Bu fikrlar bugungi globallashuv davrida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Globallashuvning salbiy ta'sirlarini tahlil qilar ekanmiz, axborot urushlari va g'oyaviy kurashlar ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. 2020-yildan keyin dunyo bo'yicha kiberhujumlar soni 2 baravardan ko'proqqa oshgani qayd etilgan. Bu esa axborot xavfsizligi bilan bir qatorda ma'naviy xavfsizlik masalasining ham dolzarbligini kuchaytiradi. Chunki axborot oqimi faqat texnik vosita emas, balki g'oyaviy ta'sir quroli ham hisoblanadi.

Shu o'rinda, ma'naviy tahdidlar faqat tashqi omillar bilan emas, balki ichki ijtimoiy muammolar

bilan ham bog‘liq ekanini ta’kidlash lozim. Iste’molchilik psixologiyasi, individualizmning keskin kuchayishi hamda “tezkor foyda” tamoyilining ustunlashuvi jamiyat ma’naviy muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Natija va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayoni jamiyat ma’naviy hayotiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda: bir tomondan ilm-fan, texnologiya va axborot almashinuvini jadallashtirsa, ikkinchi tomondan milliy qadriyatlar tizimiga nisbatan turli ma’naviy tahdidlarni kuchaytirmoqda. Xususan, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi, axborot oqimlarining nazoratsizligi hamda ayrim destruktiv g‘oyalarning internet tarmoqlari orqali yoyilishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bu esa ma’naviy immunitetni shakllantirish masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, ma’naviy tahdidlarning oldini olishda eng muhim omil – ta’lim-tarbiya tizimining samaradorligini oshirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashdir. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida axborot madaniyatini rivojlantirish, media savodxonlikni kuchaytirish va ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda oila, ta’lim muassasalari va jamiyat institutlarining hamkorligi asosiy o‘rin tutadi.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli ravishda kuchaytirish; ikkinchidan, yoshlar uchun milliy qadriyatlar va madaniyatni targ‘ib etuvchi kontentlarni ko‘paytirish; uchinchidan, raqamli muhitda axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha targ‘ibot va profilaktik ishlarni kengaytirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar globallashuv sharoitida ma’naviy barqarorlikni saqlash va jamiyatning ma’naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA. Globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, milliy ma’naviyatga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot oqimining keskin ortishi yoshlar ongiga turli xil, ba’zan esa qarama-qarshi g‘oyalar kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa milliy qadriyatlar va an’anaviy dunyoqarashning zaiflashish xavfini yuzaga keltiradi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, ma’naviyatga tahdidlarning asosiy manbalari sifatida ommaviy madaniyat, internet tarmoqlari orqali tarqalayotgan zararli kontent, hamda iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi tilga olinadi. Ayniqsa, yosh avlodning axborotni tanlab qabul qilish ko‘nikmasi yetarli darajada shakllanmaganligi bu tahdidlarni yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, globallashuvni faqat salbiy hodisa sifatida baholash to‘g‘ri emas. Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, agar to‘g‘ri yondashuv va samarali ma’naviy siyosat olib borilsa, globallashuv milliy ma’naviyatni boyitish, uni yangi bosqichga olib chiqish imkonini ham beradi. Masalan, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib etish bunga misol bo‘la oladi. Natijalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, ma’naviyatni himoya qilishda ta’lim tizimi, oila instituti va jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yoshlar ongida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining obyektiv va muqarrar bosqichi sifatida namoyon bo‘lib, u ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, xususan, ma’naviy-madaniy sohaga ham chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, milliy ma’naviyat, an’anaviy qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy ongga nisbatan turli shakldagi tahdidlarni yuzaga keltirayotgani ilmiy jihatdan asoslandi. Xususan, axborot makonining globallashuvi, ommaviy madaniyat ta’sirining kuchayishi va destruktiv g‘oyalarning tez tarqalishi ma’naviy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida e’tirof etildi.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, jamiyatda barqaror ma’naviy muhitni shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, media savodxonlikni oshirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib etish hamda axborot xavfsizligini

mustahkamlash muhim strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018

3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1991.

4. Giddens A. The Consequences of Modernity. – Stanford University Press, 1990.

5. Huntington S. P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996.

6. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996.

7. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Globallashuv va madaniy jarayonlar bo‘yicha ilmiy ishlanmalar. 2009.

8. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar: globallashuv, ma’naviyat va jamiyat. – Ilmiy to‘plam. Toshkent, turli yillar.

ОБЩЕПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ИССЛЕДОВАНИЙ ВОСПРИЯТИЯ ЗРИТЕЛЬНЫХ ИЛЛЮЗИЙ

Пронин Роман Олегович,
Доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Международная академия исламоведения Узбекистана

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные общепсихологические теории, описывающие и объясняющие восприятие зрительных иллюзий (гештальтеория, когнитивный подход и т.д.). В качестве иллюстрации проанализированы экспериментальные исследования с окном и комнатой Эймса, иллюзией контраста светлоты и эффектом Струпа.

Ключевые слова: зрительные иллюзии, теории, восприятие, общая психология, познавательные процессы.

GENERAL PSYCHOLOGICAL RESEARCH AREA INTO THE PERCEPTION OF VISUAL ILLUSIONS

Pronin Roman Olegovich,
Doctor of Philosophy (PhD) on Psychological sciences
International Academy of Islamic Studies of Uzbekistan

Annotation: This article examines the main general psychological theories describing and explaining the perception of visual illusions (Gestalt theory, cognitive approach, etc.). Experimental studies involving the Ames window and Ames room, the light contrast illusion, and the Stroop effect are analyzed for illustration.

Key words: visual illusions, theories, perception, general psychology, perceptual learning, cognitive processes.

VIZUAL ILLYUZIYALARNI IDROK ETISH BO’YICHA UMUMIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR YO’NALISHI

Pronin Roman Olegovich,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O’zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada vizual illyuziyalarni idrok etishni tavsiflovchi va tushuntiruvchi asosiy umumiy psixologik nazariyalar (Gestalt nazariyasi, kognitiv yondashuv va boshqalar) ko’rib chiqiladi. Ames deraza va Ames xonasi, yorug’lik kontrasti illyuziyasi va Strup effekti bilan bog’liq eksperimental tadqiqotlar misol sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: vizual illyuziyalar, nazariyalar, idrok, umumiy psixologiya, kognitiv jarayonlar.

Проблема восприятия зрительных иллюзий в основном рассматривается в общей психологии, в частности, психологии ощущения и восприятия, однако эта проблематика затрагивается и в других отраслях психологии (например, этнопсихологии, социальной психологии, инженерной психологии), а также в психиатрии. В связи с этим проблематике восприятия зрительных иллюзий посвящено довольно большое количество исследований в разных отраслях психологии, но больше всего этих исследований проведено именно в рамках общепсихологического направления. Рассмотрим некоторые исследования в контексте данного направления.

В общепсихологическом направлении восприятие зрительных иллюзий в основном объясняется с позиций таких теорий, как:

- гештальттеория (в основе процесса восприятия зрительных иллюзий лежат законы

формирования гештальта, т.е. взаимодействия как элементов самой фигуры между собой, так и фигуры с фоном) (Рок, 1980);

- теория движений глаз (суждения о пространственных характеристиках иллюзии основано на сканирующих движениях глаз) (Рок, 1980);

- теория кажущейся удалённости, перспективы или константности (иллюзия возникает в том случае, когда объекты, расположенные на разных расстояниях от наблюдателя, имеют одинаковый ретинальный размер – тогда они выглядят различно) (Рок, 1980);

- теория смещения нейронной активности (перцептивный процесс, который происходит в одной области нервной системы, может тормозить или вовсе блокировать процесс в соседней, поэтому срабатывает эффект контраста) (Рок, 1980);

- теория бессознательных умозаключений (процесс формирования зрительных образов (и зрительных иллюзий) является бессознательной интерпретацией ощущений на основе полученных в прошлом знаний) (Меньшикова, 2013);

- трансакционизм (основой зрительного восприятия является опыт общения с окружающим миром, точнее с конкретными объектами и поверхностями, и объектам разной формы, расположенных в разной пространственной ориентации может соответствовать одно и то же ретинальное изображение) (Шиффман, 2003);

- когнитивный подход (восприятие является информационным процессом, состоящим из определённых этапов переработки сенсорной информации с сохранением в памяти результатов этой переработки) (Гусев, 2007);

- нейрофизиологический подход (в зрительном восприятии могут проявляться особенности функционирования как отдельных нейронов, так и их взаимодействие в рамках нейронных ансамблей) (Меньшикова, 2013);

- информационный подход (зрительная система человека при анализе изображения, полученного на сетчатке, извлекает из него информацию наподобие ЭВМ, которая решает определённую задачу по заданному алгоритму) (Гусев, 2007).

Помимо вышеперечисленных теорий, в общепсихологическом направлении восприятие зрительных иллюзий исследуется, исходя из связи восприятия с другими познавательными процессами. В качестве иллюстрации проанализируем некоторые эксперименты.

1. Рассмотрим окно Эймса. Оно имеет трапецевидную форму и если смотреть на него прямо, находясь перед ним, то оно кажется прямоугольным, но повёрнутым под некоторым углом. Это окно приводится во вращение, но наблюдателю кажется, что оно покачивается из стороны в сторону. В качестве объяснения приводится также предшествующий опыт: мы привыкли взаимодействовать с окнами именно прямоугольной формы, а не с трапецевидными, и нам гораздо легче и привычнее воспринять эту стимуляцию как окно прямоугольной формы, но под углом к нам, нежели другой формы (Ames, 1946).

2. С комнатой Эймса наблюдается несколько иная ситуация. В неё смотрят через маленькое отверстие, которое является искусственным зрачком, позволяющее смотреть одним глазом с ограниченным полем зрения. В этом случае большинство наблюдателей видят двух человек, необычно различных по росту: взрослая женщина кажется меньше по росту, чем ребёнок. В действительности женщина выше ребёнка. Иллюзорный эффект достигается за счёт самой перекошенной комнаты – «маленькая» женщина, находится от наблюдателя дальше, что «высокий» ребёнок. Комната специально устроена так, чтобы вызвать искажённое восприятие размера. Левый угол значительно дальше от наблюдателя, чем правый и более удалённые детали комнаты увеличены в размеры, чтобы создать у наблюдателя впечатление того, что они находятся на равном расстоянии от него (Шиффман, 2003).

Таким образом, при восприятии объектов в перекошенной комнате наблюдатель должен выбрать 1 из двух вариантов: воспринять двух людей с нормальной разницей в

росте на фоне стены трапецевидной формы, либо воспринять двух людей с ненормальной разницей в росте на фоне прямоугольной стены. Так как в нашем обыденном восприятии прямоугольные комнаты являются привычным объектом и фоном восприятия, то это представление оказывается сильнее реальных физических условий наблюдения и нашей зрительной системе легче интерпретировать эту ситуацию так, что в прямоугольной комнате находятся люди, неадекватно различающиеся по росту.

3. Рассмотрим результаты современных экспериментальных исследований, проведённых с иллюзией ОСК (одновременного светлотного контраста). Классический эффект данной иллюзии состоит в том, что изменение светлоты фона влияет на восприятие одинаково серых фигур (квадратов), расположенных в центре. Соответственно, на светлом фоне центральная фигура воспринимается как более тёмная, а при тёмном фоне та же фигура воспринимается как более светлая. Это иллюзорный эффект становится более выраженным при артикулированном фоне, т.е. состоящим из множества разноокрашенных участков. Как правило, эти участки окрашены в разные оттенки серого цвета. (Меньшикова, 2013).

4. Несколько иной эффект можно видеть в иллюзии Струпа, которая заключается в трудностях при назывании цвета слова в случае предъявления слов, обозначающих один цвет, но при этом написанных другим цветом. В нашей статье была предпринята объяснить этот эффект с позиций конструктивизма, в частности с помощью теории Брунера (Брунер, 1977). В данном эксперименте было 2 серии. В 1-й серии предьявлялся слайд, на котором значение слова и цвет шрифта совпадали. Во 2-й серии был показан слайд, на котором значение слова и цвет шрифта имели расхождения и противоречия. В связи с тем, что на слайде содержалась такая противоречивая информация, процесс категоризации происходит дольше. Так, если первичная категоризация, которая заключается в выделении слова среди остальных, может происходить так же быстро, как и в 1-й серии, то 2-й этап категоризации (поиск признаков) проходит дольше за счёт того, что предъявляемые признаки не соответствуют друг другу, и испытуемому приходится каждый раз делать выбор в соответствии с инструкцией и установкой. Именно на этом этапе некоторыми испытуемыми совершаются ошибки – они называли значение слова. Но, в большинстве случаев эти ошибки быстро замечались и исправлялись самими же испытуемыми, что и происходит на 3-м этапе категоризации, где осуществляется проверка, которая заключается в сличении озвученного ответа с полученной ранее инструкцией (Пронин, 2019).

Таким образом, мы видим, что при восприятии зрительных иллюзий задействованы и другие познавательные процессы (память, внимание, ощущения, мышление и др.) и тот факт, что такое восприятие удаётся объяснить с позиций общепсихологических теорий (гештальттеория, когнитивный подход и т.д.), позволяет обозначить именно общепсихологическое направление исследований данного феномена.

Список литературы:

1. Брунер Дж. Психология познания. М., 1977. 413 с.
2. Гусев А.Н. Общая психология. Т.2 «Ощущение и восприятие» / Под ред. Б.С. Братуся. М.: Академия, 2007. 416 с.
3. Меньшикова Г.Я. Психологические механизмы восприятия зрительных иллюзий. М.: МАКС Пресс, 2013. 128 с.
4. Пронин Р.О. Особенности восприятия зрительных иллюзий учениками 1-го, 5-го и 9-го классов общеобразовательной школы // Журнал «Бола ва замон», №1, 2021. с.46-50.
5. Рок И. Введение в зрительное восприятие. М.: 1980. Т.1. 312 с.
6. Шиффман Х.Р. Ощущение и восприятие. СПб.: Питер, 2003. 928 с.
7. Ames A. Binocular vision as affected by relations between uniocular stimulus-patterns in commonplace environments. American Journal of Psychology, 1946. Vol. 59. P. 333-357.

ALOHIDA TA’LIMGA EHTIYOJLI BOLALAR BILAN ISHLASHDA YUZAGA KELADIGAN QIYINCHILIKLAR

Rabbimova Sarvinoz Jurabek qizi
Buxoro davlat pedogogika instituti
1-bosqich magistri

Ilmiy rahbar:I.E.Davronov
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: mazkur maqolada alohida ta’limga ehtiyojli bolalar bilan ishlash jarayonida pedagoglar, ota-onalar va ta’lim tizimi duch keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Unda psixologik, metodik, ijtimoiy va tashkiliy qiyinchiliklar yoritilgan bo‘lib, ayniqsa o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, resurslarning yetishmasligi, jamiyatdagi stereotiplar va integratsiyaga oid muammolar alohida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ushbu muammolarga qarshi kurashish yo‘llari, jumladan, inklyuziv yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ham bayon etilgan. Tadqiqot natijalari alohida ehtiyojli bolalarning samarali ta’lim olishini ta’minlashda tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: alohida ta’lim ehtiyotli bolalar,pedagogik qiyinchiliklar,individual yondashuv,psixologik to‘siqlar,inklyuziv ta’lim metodlari,psixologik qo‘llab quvvatlash.

Abstract: This article analyzes the problems of children’s educational activities, parents and the education system. It covers technical, methodological, social and organizational aspects, especially the problems of teachers’ treatment support, resource generation, stereotypes in society and integration. The article also presents proposals and recommendations on ways to combat these problems, including the use of inclusive education, modern pedagogical technologies and teacher training. It shows the systematic need for ensuring effective education of children with medical support.

Kalit so‘zlar: alohida ta’lim ehtiyotli bolalar,pedagogik qiyinchiliklar,individual yondashuv,psixologik to‘siqlar,inklyuziv ta’lim metodlari,psixologik qo‘llab quvvatlash.

Keywords: special education, children with special needs, pedagogical difficulties, individual approach, psychological barriers, inclusive education methods, psychological support.

Аннотация: В статье анализируются основные проблемы, с которыми сталкиваются педагоги, родители и система образования при работе с детьми с особыми образовательными потребностями. Выделяются психологические, методические, социальные и организационные трудности, особое внимание уделяется уровню подготовки учителей, нехватке ресурсов, стереотипам в обществе и проблемам интеграции. В статье также излагаются пути решения этих проблем, включая инклюзивный подход, использование современных педагогических технологий и повышение квалификации учителей. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости системного подхода к обеспечению эффективного образования детей с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: специальное образование, дети с особыми потребностями, педагогические трудности, индивидуальный подход, психологические барьеры, методы инклюзивного образования, психологическая поддержка.

Bugungi zamonaviy dunyo ta’lim tizimida insonparvarlik tamoyillari asosida har bir bolaga e’tibor qaratilmoqda. Sog‘lom bolalar bilan birgalikda imkoniyati cheklangan alohida ta’limga

ehtiyojli bo`lgan bolalarning ta’lim-tarbiyasini a’lo darajada tashkil etish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu toifadagi bolalar bilan ishlashda o‘ziga xos pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvni talab etadi. Ularning o‘qish, o‘rganish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish har bir ta’lim muassasasining, pedagogning va ota-onaning muhim vazifasi hisoblanadi. Bu borada juda ko‘plab ilmiy izlanishlar,tadqiqotlar olib borilyapti. Yetarlicha imkoniyatlar yaratib berilyapti.Nogironligi bor bolalarga ta’lim berishda pedagoglar,ota-onalar va jamiyatdan yuqori darajadagi e’tibor, malaka,sabr va bilim talab qilinadi.

Alohida ta’lim ehtiyojli bo`lgan bolalar (masalan, autizm, disleksiya, motor qobiliyatlarining cheklovlari, nutq buzilishlari va boshqalar) bilan ishlash zamonaviy ta’lim tizimining eng murakkab va mas’uliyatli sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu bolalarning individual ehtiyojlarini to‘liq qondirish, ularning ijtimoiy hamda intellektual salohiyatini oshirish uchun pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlari zarur. Biroq, amaliyotda ko‘plab qiyinchiliklar yuzaga keladi, ularni bartaraf etish esa innovatsion yondashuvlar, qat’iyat va tizimli ishlashni talab qiladi.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko’rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida ko’plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2020 yil 15 -oktyabrda qabul qilingan O’zbkiston Respublikasining “Nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida”gi qonunida nogironligi bo’lgan shaxslarning huquq va imkoniyatlari mustahkamlangan.Mazkur qonunga binoan nogironligi bor bolalar— barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi tufayli jamiyat va davlat tomonidan muhofazaga olinishi belgilangan.Yosh chegarasi esa o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar hisoblanadi.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo`lgan bolalar har xil turdagi nogironlikka, rivojlanishdagi orqalanish yoki psixologik muammolarga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ularga yagona ta’lim metodikasini qo‘llash samara bermaydi. Har bir bola uchun individual ta’lim rejasini ishlab chiqish zarur va ular bilan individual ishlash psixologik,jismoniy,aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bugungi kunda juda ko‘p ta’lim muassasalarida alohida ta’limga ehtiyojli bolalar bilan ishlash uchun zarur texnik vositalar, maxsus darsliklar va qo‘llanmalar yetishmaydi. Bundan tashqari, maxsus pedagog va defektolog kadrlarga ehtiyoj yuqori bo‘lib boryapti.Ba’zi hollarda ota-onalar o‘z farzandining alohida ehtiyojga ega ekanligini tan olishni istamaydilar yoki pedagoglar bilan samarali hamkorlik qilmaydilar. Bu holat bolaning rivojlanishini sekinlashtiradi.Bunday bolalarda o‘rganish sur’ati, idrok darajasi, xotira va tafakkur faoliyati bo‘yicha tengdoshlaridan farq qiladi. Shuning uchun odatdagi dars metodikasi ularning ehtiyojlariga to‘g‘ri kelmaydi. Pedagoglar darsni rejalashtirishda ularning psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olmagan taqdirda, bola materialni o‘zlashtirmay qoladi.Kompyuter va texnik vositalar ta’minot yetishmasligi ham bunday muammolarni chigallashtiradi.

Zamonaviy inkluziv ta’limning asosiy tayanchlaridan biri bu— texnologiyalar yordamida individual ta’lim yaratishdir. Biroq ko‘plab maktablarimizda sensorli moslamalar, dosklar,ekranli o‘quv qurilmalari, tinglash va nutqni rivojlantirish uchun vositalar yo‘q yoki juda kam miqdorda. Bolalar ko‘pincha o‘z tengdoshlariga nisbatan yopiq, uyatchan, o‘ziga ishonchsiz bo‘ladilar. Ular sinf jamoasida o‘z o‘rnini topishda qiynaladilar. Bu holat ularning o‘zini past baholashiga va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.Afsuski, ayrim hollarda jamiyat bunday bolalarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘ladi. Boshqa o‘quvchilar va hatto ayrim pedagoglar tomonidan kamsitilish hollari uchraydi. Bu esa bolalarda ruhiy tushkunlik, ijtimoiy chekinish va salbiy xatti-harakatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Bundan tashqari nogironligi bor bolalar bilan ishlash uchun maxsus bilim, sabr va kasbiy mahorat zarur. Biroq hozirda har doim ham maktablarda defektolog, tiflopedagog, surdopedagog, logoped yoki maxsus psixolog mavjud emas.

Bunday holatlarni bartaraf etish uchun:

1. Maxsus individual yondashuvni joriy etish,alohida ta’limga ehtiyotli bolalar bilan ishlashda «bitta o‘lcham — hammaga» tamoyili samara bermaydi. Shuning uchun:

-har bir bola uchun individual o‘quv rejasi tuzish;

-bilimlarni bosqichma-bosqich, sodda shaklda yetkazish;

-qo‘llab-quvvatlovchi vizual, audio va kinestetik materiallar bilan darslarni boyitish lozim.

2. Pedagoglarning malakasini oshirish

Maxsus kurslar, o‘quv mashg‘ulotlari ,seminar treninglar, onlayn treninglar orqali pedagoglar quyidagi yo‘nalishlarda bilimlarini boyitishlari zarur:

-inkluziv ta’lim asoslari;

-maxsus pedagogika va defektologiya;

-psixologik yordam ko‘rsatish usullari;

-konfliktli vaziyatlarni ijobiy yo‘naltirish strategiyalari

3.Oilalar bilan uzviy hamkorlikni rivojlantirish ota-onalar bola rivojida asosiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun har oyda bolaning rivojlanish holati bo‘yicha individual uchrashuvlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.. Ota-onalar uchun psixologik yordam guruhi tashkil etilib , uy sharoitida bolani rivojlantirish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq berish zarur.Bundan tashqari Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish sinfda bag‘rikenglik va mehr-oqibat muhitini shakllantirish uchun tengdoshlar bilan qo‘shma loyihalar,rolli o‘yinlar, guruhli mashg‘ulotlar,»Do‘stlik haftaligi», «Yaxshilik marafoni» kabi tadbirlar tashkil etish mumkin.

4.Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda,alohida ta’limga ehtiyotli bolalar bolalar uchun mobil ilovalar, maxsus o‘yinlar, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari ta’limni yengillashtiradi. Masalan:

-nutq rivoji uchun — Talky, Speech Blubs;

-aqliy faoliyat uchun — Lumosity, CogniFit;

-o‘yinli o‘rganish uchun — Khan Academy Kids.

- ko‘p hollarda maktablar va o‘quv markazlarida individual dasturlar ishlab chiqilmagan, standart metodikalar asosida ishlash majburiyati mavjud.

- bolaning kognitiv yoki hissiy darajasiga mos materiallarning yetishmasligi.

O‘qituvchilar Tayyorgarligi va Tajribasi Kamchiliklari

- maxsus pedagogika bo‘yicha malakali kadrlar yetishmasligi.

- psixologik jihatdan tayyorlanish va bolalar bilan muloqot qilish usullarini bilmaslik.

5. Psixologik To‘siqlar

- bolalarda o‘zini qadrlash hissining pastligi, xavotir va stress holatlari.

- sinfdoshlar bilan munosabatlarda muammolar (masalan, kamsitish yoki chetlashtirish).

Alohida ta’limga ehtiyojli bo`lgan bolalar bilan ishlashda samarali natijalarga erishish uchun tizimli, izchil va insonparvar yondashuv zarurdir. Har bir bola o‘ziga xos salohiyatga ega bo‘lib, ularni aniqlash va rivojlantirish jamiyatning burchidir. Yagona maqsad esa —barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar va quvonchli kelajak yaratishdir.

Alohida ta’lim ehtiyojli bolalarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va to‘laqonli rivojlanishi uchun ularga sifatli ta’lim berish, ularni qo‘llab-quvvatlash va muhitni moslashtirish zarur. Pedagoglar, ota-onalar va jamiyat birgalikda harakat qilgan taqdirda, barcha qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin. Har bir bolaning qalbida porlayotgan salohiyatni kashf etish — bu eng yuksak insoniy vazifadir.

Alohida ta’limga ehtiyojli bolalar bilan ishlash—bu nafaqat pedagogik, balki insonparvarlik masalasidir. Ushbu bolalarning individual ehtiyojlarini to‘liq anglash, ularga moslashtirilgan yondashuvni ishlab chiqish va jamiyatning faol hamkorligini ta’minlash orqali ularning salohiyatini ochish mumkin. Asosiy qiyinchiliklar qatoriga standartlashtirilgan ta’lim metodlarining yetishmasligi, o‘qituvchilarning maxsus bilimlaridagi kamchiliklar, resurslar cheklovi, ijtimoiy stigma va psixologik to‘siqlar kiradi. Biroq, bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘llar samarali bo‘lishi mumkin:

1.Innovatsiyalarni joriy etish:Virtual reallik, interaktiv dasturlar kabi texnologiyalardan foydalangan holda ta’limni qiziqarli va samarali qilish.

2.Huquqiy va moliyaviy tayanch: Davlat tomonidan maxsus ta’lim sohasidagi qonunlarni takomillashtirish va loyihalarni moliyalashtirishni kuchaytirish.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki, alohida ta`limga ehtiyojli bo`lgan bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatning kaliti—barcha jabhalarda (pedagogika, psixologiya, tibbiyot, jamiyat) uyg‘unlik va izchillikdir. Bolalarning har biri o‘ziga xos dunyoga ega bo‘lib, ularni tushunish, qadrlash va ular uchun imkoniyatlar yaratish—zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifasidir. Faqatgina shu yo‘l bilan biz hamma uchun teng va quvonchli kelajakni qura olamiz.Alohida ta’lim ehtiyojli bolalarni qo‘llab-quvvatlash nafaqat pedagogik, balki insoniy burchdir. Har bir bola – bu kelajagimiz. Uning qalbidagi ishonchni yoqish, imkoniyat eshiklarini ochish esa har birimizning burchimizdir.Zero “Har bir bola yulduz—uni porlashi uchun to‘g‘ri yondashuv kerak”.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2022-yil 18-may) — “Nogironligi bo‘lgan bolalar ta’limini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son qarori

2.. Inkluziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi .Toshkent.2021-yil

3. Abdurahmonova, M. Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti. (2021)

4. Karimova. D . Inkluziv ta’lim: Nazariya va amaliyot. Toshkent: (2020)

5. Xolmatova N. , To‘xtaeva Z. «Alohida ta’lim ehtiyojli bolalar bilan ishlashda pedagogik yondashuvlar», Pedagogika ilmiy-amaliy jurnali,(2022) 1(3), 45–50.

6. UNESCO. Inclusive education: guidelines for policy-makers. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.(2017)

